

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

PAYZIYEV ZOXIR ZOHID O‘G‘LI

**“BANKLARNING FAKTORING OPERATSIYALARI VA
ULARNI TAKOMILLASHTIRISH”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5230700-“Bank ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**Kredit-iqtisod fakulteti
dekani**

_____ i.f.n., dots. Saidov R.

“ ____ ” _____ 2017 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**“Bank ishi” kafedrası
mudiri**

_____ i.f.n., dots. Saidov D.A.

“ ____ ” _____ 2017 y.

Bitiruvchi:

5230700 – “Bank ishi” ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs
talabasi

Payziyev Z.Z.

Ilmiy rahbar:

o‘q., Rustamov M. _____

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-BOB.	TIJORAT BANKLARI VOSITACHILIK OPERATSIYALARINING IQTISODIY MAZMUNI VA AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	6
1.1.	Tijorat banklari vositachilik operatsiyalarning mohiyati va shakllanishi.....	6
1.2.	Tijorat banklarining faktoring operatsiyalarini nazariy va huquqiy asoslari	13
	1- bob bo'yicha xulosa.....	25
2-BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA FAKTORING OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	26
2.1.	Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini tashkil etish va hisobga olish tartibi.....	26
2.2.	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalari tahlili.....	36
2.3.	Tijorat banklari vositachilik operatsiyalarining banklar foizsiz daromadlarini shakllantirishdagi o'rni.....	46
	2- bob bo'yicha xulosa.....	54
3-BOB	TIJORAT BANKLARI FAKTORING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	55
3.1.	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlanish tendentsiyasi va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	55
3.2.	Tijorat banklari faktoring operatsiyalarini takomillashtirish istiqbollari.....	58
	3- bob bo'yicha xulosa.....	61
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	62
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65
	ILOVA.....	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Raqobatga asoslangan bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining mijozlarga ko'satadigan xizmat turlari tabiiy ravishda xilma – xillik kasb etmoqda. Bunday sharoitda bank xizmatlarining zamon talablariga javob beruvchi yangi turlarini amaliyotga tatbiq etish orqali aholining hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning banklarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish va ularning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish banklar faoliyatidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Ma'lumki, bank ishiga oid bo'lgan iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlarini ikki turi:

- an'anaviy bank xizmatlari;
- zamonaviy bank xizmatlari alohida ajratib ko'rsatiladi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilgandek tijorat banklari faoliyatida ko'zlangan natija ham foyda olishdir. Shu maqsadda Respublikamiz xududida o'z faoliyatini yuritayotgan banklar hozirgi kunda mijozlarning ishonchini oqlash, ularga qo'shimcha yengilliklar yaratish, ularni o'zlariga jalb qilish bilan birgalikda mijozlarga zamonaviy xizmatlarni taklif etib kelishmoqda. Bu jihatdan ayni damda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida bank tizimi bo'yicha ham bir qancha yo'nalishlar belgilab berilgan. Unga ko'ra „...ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash hamda bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar

hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish“¹

Jahon bank amaliyotida keng tarqalgan vositachilik operatsiyalarining xilma – xil usullarini qo'llash orqali banklarning daromadlari va shunga bog'liq holda barcha ko'rsatkichlari yaxshilanib bormoqda.

Agar yakunlangan “2016 yil yakunlari bo'yicha rezerv pullar miqdorining yillik o'sish sur'ati pul massasining o'sish sur'atlariga nisbatan 1,4 foiz bandga pastroq bo'lib, bu o'z navbatida, pul multiplikatori ko'rsatkichining 2015 yilga nisbatan 1,2 foizga oshishi hisobiga yuz berdi.

O'z navbatida, pul multiplikatorining bunday sur'atlarda oshishi banklarning mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanayotganligi, ularning vositachilik roli ortib borayotganligi va iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilayotgan investitsion kreditlar hajmining yuqori sur'atlarda oshayotganligi bilan izohlanib, iqtisodiyotdagi pul taklifini noinflyatsion hamda noemissiyaviy manbalar hisobidan shakllantirish imkonini berdi.”²

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshlikni oshirish sharoitida tijorat banklarida vositachilik operatsiyalari turlarini ko'paytirish va bu borada mavjud amaliyotni takomillashtirishda xorijiy tajribadan foydalanish masalalarini keng miqyosda tadqiq etilishi banklar faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi hamda mazkur mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot predmeti bo'lib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablaridan kelib chiqib tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshirish masalalari borasidagi mavjud qo'llanib kelinayotgan amaliy tajribalar yutuqlarini o'rganish, shuningdek, tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshirish masalalariga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish hamda amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

² 2016 yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari //Bozor, pul va kredit. –Toshkent 2017 -№ 1

Tadqiqot ob’ekti bo’lib, O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarining faktoring operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida faktoring operatsiyalari turlari, ularning ahamiyati, banklarda turli vositachilik operatsiyalarining tashqil etish masalalarini nazariy, uslubiy asoslarini o’rganish, tadqiq etish orqali banklarda bu turdagi bank xizmatlari turlarini ko’paytirish va shu orqali banklar daromadlilikini oshirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimining tutgan o’rnini, shuningdek, ular tomonidan amalga oshiriladigan vositachilik operatsiyalari mazmun-mohiyatini o’rganish;
- tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini o’rganish;
- banklarning foizsiz daromadlari shakllanishi va oshishida faktoring operatsiyalari rolini o’rganish;
- tijorat banklarida faktoring operatsiyalari tashqil etilishi va ularni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foylanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “Tijorat banklari vositachilik operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va amalgi oshirishning huquqiy asoslari” deb nomlanadi va unda tijorat banklarining faktoring operatsiyalarining nazariy va huquqiy asoslari yoritib berilgan. “O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning amaldagi holati tahlili” nomli ikkinchi bobda mamlakatimiz tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi “Tijorat banklari faktoring operatsiyalarini takomillashtirish istiqbollari” deb nomlansa, bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzu yuzasidan umumiy xulosalar va takliflar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi 68 bet, 10 ta jadval va ilovadan iborat.

1-BOB. TIJORAT BANKLARI VOSITACHILIK OPERATSIYALARI NING IQTISODIY MAZMUNI VA AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari vositachilik operatsiyalarning mohiyati va shakllanishi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari kundan –kunga xilma xil xarakter kasb etib bormoqda. Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar ularning iqtisodiyotdagi muhim vazifalaridan kelib chiqmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi³:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
- omonatlarni jalb etish;
- kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.
- Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:
 - mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;
 - chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
 - pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
 - uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
 - uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

³ O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonun 4-moddasi. 1996 yil 25 aprel

- qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

- jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

- moliyaviy lizing;

- xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalari mohiyati va shakllanishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, biznesni yuritish uchun yaratilgan shart sharoitlar va albatta iste'molchilar mentalitetiga mutanosib ravishda shakllanadi. Tijorat banklarining operatsiyalari mohiyatiga ko'ra tasniflanganda vositachilik operatsiyalari deganda odatda bankning mijozlarga hisob – kitob operatsiyalarini amalga oshirish yuzasidan qo'rsatilgan xizmatlari nazarda tutiladi.

Professor I.T.Balabanov bank operatsiyalarini guruhlaganda ularni bankning investitsion operatsiyalari, bank kafolatlarini berish operatsiyalari va komission operatsiyalarga ajratadi. Uning ta'rifiga ko'ra bankning komission operatsiyalari bu – shunday bank operatsiyasi turiki, unda bank mijozning topshirig'ini bajaradi va evaziga komission haq undirib oladi.⁴

O'zbek iqtisodchi olimlaridan ayrimlari ham bankning komission va vositachilik operatsiyalarini bir xil deb qaraydilar. Xususan, Yo.Abdullaev, T.Qoraliev, Sh.Toshmurodov, S.Abdullaeva tomonidan yaratilgan “Bank ishi” darsligida ayni shu fikrni ko'rish mumkin. Ular fikricha, banklar komission operatsiyalarni ham olib boradilar, ya'ni bunda banklar mijozlarining hisobotida ularning turli topshiriqlarini bajaradilar. Bunday topshiriqlar mamlakat ichida yoki bir mamlakatda boshqa mamlakatga pul o'tkazish bilan bog'liqdir. Bunda mijoz o'z bankiga uning hisobiga ma'lum bir summani ko'rsatilgan manzil bo'yicha o'tkazishni yuklatadi.

⁴ И.Т. Балабанов . “Банки и банковское дело”. Учебное пособие. Москва:Питер 2003 г.259 с.

Operatsiya nihoyasiga etgandan so'ng bank mijoziga pul o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatni yuboradi yoki beradi. O'tkazilgan operatsiya uchun bank vositachilik haqini oladi.⁵

Boshqa bir taniqli iqtisodchi olim banklarning vositachilik operatsiyalariga mutlaqo boshqacha yondashadi. Masalan, G.G.Korobova fikricha bankning vositachilik operatsiyalarida banklar moliyaviy vositachilar rolini bajaradilar va shunga ko'ra bankning vositachilik operatsiyalariga lizing operatsiyasini ham kiritadi. Uning fikricha bankning vositachilik operatsiyalariga: lizing, faktoring, trast, kafolatlar berish va konsalting operatsiyalari kiradi.⁶ Fikrimizcha, lizing operatsiyasini bank o'z aktivlari tomonidan amalga oshirganda lizing operatsiyasini alohida bank operatsiyasi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Agar lizing operatsiyasida lizingga alohida beruvchi mavjud bo'lsa, bu turdagi lizing operatsiyasini vositachilik operatsiyasi deb tasniflash mumkin.

Bugungi kunning eng zabardast olimlaridan biri O.I.Lavrushin bankning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini tasniflab turib, banklarning qimmatli kog'ozlar bozoridagi mijozlarining topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilish, sotish va saqlash kabi operatsiyalarni banklarning vositachilik operatsiyalari sifatida ta'riflaydi.⁷

Ayrim iqtisodchi olimlar banklarning operatsiyalarini guruhlayotganda vositachilik operatsiyalarini bankning aktiv va passiv operatsiyalaridan ajratib, alohida ko'rsatadilar. Xususan, Filatov M.V. bank operatsiyalarini quyidagi guruhlariga ajratadi.

M.V.Filatovning fikriga ko'ra tijorat banklari operatsiyalarini uch guruhga ajratish mumkin:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- vositachilik operatsiyalari.

⁵ T.Karaliev va boshqalar "Bank ishi" darslik – T.: "Fan va texnologiya", 2016, 640 bet.

⁶ "Банковское дело". Учебник. Под. ред. Г.Г.Коробовой. М: Экономика 2006 г. 767 с.

⁷ "Банковское дело". Учебник. под. ред. О.И. Лаврушин. М: "Финансы и статистика" 2005 г. 672 с.

U tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra banklarning vositachilik operatsiyalari mijozlar topshirig'iga asosan hisob – kitob operatsiyalari va mijozlarga ko'rsatiladigan kassa xizmatlaridan tashqil topadi. Fikrimizcha, tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari ko'lami nisbatan kengroq hisoblanadi, xususan, bugungi kunda keng rivojlanayotgan faktoring va trast operatsiyalari ham bankning vositachilik operatsiyalari sirasiga kiradi. Bu holatni M.V. Filatov e'tiborga olmagan.

Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalarining shakllanishi bank mijozlari kontingenti, ular tomonidan amalga oshiriladigan savdo va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsiyalarga mutanosib ravishda kechadi. Masalan, banklarda akkreditiv ochish va uning yuritilishi bilan bog'liq operatsiyalar bevosita tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mijozlari mavjud bo'lgan banklardagina amalga oshirilishi mumkin. Akkreditiv opeartsiyasida bank o'z mijozidan uchunchi bir shaxs ya'ni akkreditiv ochilgan shaxsga (benefitsiarga) to'lov summasini o'tkazish haqida topshiriq oladi.

Bu hisob-kitobni amalga oshirish uchun tovar sotib olgan tadbirkor sotuvchiga berish kerak bo'lgan summani avvaldan bankka qo'yishi mumkin. Tegishli tovarni yoki unga tegishli bo'lgan hujjatlarni olish sharti bilan tadbirkor o'z bankiga sotuvchiga pul to'lashni yuklatishi mumkin.

Tijorat banklarida amalga oshiriladigan kafolat berish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar ham bankning vositachilik operatsiyalarining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, banklarda mijozlar soni va xarakteridan kelib chiqqan holda bank operatsiyalari ham shakllanib boradi. Banklarning ilk amalga oshirgan operatsiyalari ham bugungi kunda vositachilik operatsiyalarining aynan na'munasi bo'la oladi. Jahon xo'jaligining integratsiyalashuvi va globallashuvi, valyuta va fond bozorlarining taraqqiy etishi kabi omillar banklarda turli vositachilik operatsiyalarining shakllanishi uchun zamin yaratmoqda. Bugungi kunda birgina mijozlarning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq

bo'lgan operatsiyalarning bir qancha alohidalashgan turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- talab qilib olinguncha asosiy va ikkilamchi hisobvaraqlar ochish, ularni qayta rasmiylashtirish va yopish;
- pul chek daftarchilarini berish va ularga xizmat ko'rsatish;
- naqd pulni oldindan tayyorlash va inkassatsiya xizmati orqali mijoz kassasiga etkazib berish;
- akkreditivlar ochish va yuritish va boshqalar.

Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalari shakllanishi va rivojlanishi mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorining va u bilan bog'liq infrastruktura institutlarining paydo bo'lishi va faoliyati bilan bog'liq.

Rivojlangan mamlakatlarda banklar o'zlarining tadqiqot bo'limlariga ega, ular mijozlarning topshiriqlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni tahlil qiladi, birja va birjadan tashqari bozorlar qon'yunkturasini tadqiq etadi. Bunda iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotlardan keng miqyosda foydalanadi. Ushbu tadqiqotlar asosida investitsion taktik va strategik maslahatlarga muxtoj bo'lgan ko'p sonli mijozlarning qonsaltingi amalga oshiriladi.

Mijozlarning qimmatli qog'ozlari portfelini boshqarish bo'yicha banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ularga katta daromad keltiradi. Mijozlarning hohishi bo'yicha ularning pullari xavfli yoki nisbatan ishonchli qimmatli qog'ozlarga qo'yilma qilinadi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish yo'lida ularni saqlash va ularga bo'lgan huquq hisobini yuritish maqsadida banklar o'z depozitariylarini yaratadi. Banklarning bu turdagi vositachilik operatsiyalari qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi, bozorda muomalada bo'lgan instrumentlar xususiyati va qimmatli qog'ozlar bozorining nazorat qilinish darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari mohiyati va shakllanishi ularning turlarida yaqqol namoyon bo'ladi. I.T.Balabanov bank operatsiyalarini tasniflaganda bank kafolatini berish bilan bog'liq operatsiyalarni va komission

operatsiyalarni alohida tasnifga ajratadi va bankning komission operatsiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- hisob – kassa operatsiyalari – mijozlarga to'lov va hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun milliy valyutada yoki xorijiy valyutada hisobraqam ochish, bu hisobraqamga naqdsiz ko'rinishda mablag'larni kirim qilish, shuningdek hisobraqamdan naqd ko'rinishda pullarni olish bilan bog'liq operatsiyalar;

- trast operatsiyalari – alohida tur qimmatli qog'ozlar yoki ularning portfelini ishonch bildirgan holda boshqaruv uchun berish, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq to'lov funktsiyalari, pensiya va investitsion fondlar aktivlarini boshqarish bilan bog'liq operatsiyalar;

- chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar – an'anaviy valyuta oldi – sotdisidan tashqari valyuta akkreditivlari, xorijiy banklarning yo'l cheklarini xarid qilish va to'lash, plastik kartochkalarni emissiya qilish va ularga xizmat ko'rsatish, xalqaro hisob – kitoblarni amalga oshirish kabi operatsiyalar;

- axborot xizmatlari – banklarning muayyan haq evaziga mijozlariga tijorat va notijorat xarakterdagi axborotlarni berishi bilan bog'liq operatsiyalar⁸.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarining vositachilik operatsiyalarini tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida ko'rib o'tilgan deyarli barcha operatsiyalarni va ularning zamonaviy shakllarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari uchinchi guruhi chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha banklarda quyidagi turli vositachilik operatsiyalari amalga oshirilmoqda⁹

- Chet el valyutasidagi hisobraqamni yuritish;
- Bank o'tkazmalari;
- So'rovlar va qidiruv;
- Dokumentar akkreditivlar bo'yicha amaliyotlar;
- Import akkreditivlari;
- Bitimlar;

⁸ И.Т.Балабанов. “Банки и банковское дело”. Учебное пособие. М:Питер.2003 г. 259 с.

⁹ АТІВ “Іпотека банк” мисоліда 2016 йил учун.

- Svop operatsiyalari;
- Cheklar bilan amaliyotlar;
- Inkasso;
- Kafolatlar berish va boshqalar.

Banklar faoliyatida xorijiy valyutalar bilan amaliyotlarda ko'riladigan asosiy daromad foizsiz daromadlar hisoblanadi va ular asosan bankning vositachilik operatsiyalari natijasida shakllanadi. Masalan, yuqorida ko'rib o'tilgan operatsiyalardan import akkreditivlari keng qo'llaniladi. Unga ko'ra banklar akkreditiv hisobvaraqlar ochganligi, akkreditivni to'lab berganligi va valyuta konversiyasi uchun vositachilik haqi ko'rinishida daromad oladi.

Umuman olib aytadigan bo'lsak, banklar an'anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda daromad olish maqsadida vositachilik operatsiyalarini amalga oshiradilar. K. R. Tagirbekov fikricha banklar va mijozlarning banklar tomonidan ko'rsatiladigan vositachilik xizmatlariga bo'lgan qiziqishini quyidagilar belgilab beradi:

- bankning vositachilik operatsiyalari odatda bankda avvaldan amalga oshirib kelingan operatsiyalar negizida paydo bo'ladi;

- ayrim holatlarda mijozlarning ehtiyojlarini bankning an'anaviy xizmatlariga nisbatan vositachilik xizmatlari to'laroq qondiradi. Bankning vositachilik operatsiyalarining kengayishi o'z navbatida bank mijozlari kontingentining oshishiga olib kelishi mumkin;

- qoidaga ko'ra bankning vositachilik operatsiyalari bir necha turli an'anaviy xizmatlarini ham qamrab olishi mumkin, bu banklarning universallashtiruvchi va bank faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan risklarni boshqarishga ijobiy ta'sir qiladi;

- banklarda vositachilik operatsiyalarining kengayishi bank daromadlarining oshishiga olib keladi.¹⁰

Tijorat banklari faoliyatida vositachilik operatsiyalari o'rni va iqtisodiy mohiyati to'g'risida umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, bu turdagi

¹⁰ «Основы банковской деятельности». Тагирбеков К.Р. Москва: «Инфра -М» 2003 г. 7 с.

operatsiyalarda banklar foizsiz ko'rinishdagi daromadlarini oshirish, bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari miqdori va ko'lamini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalarining rivojlanishi bankda zamonaviy bank xizmatlarining joriy qilinishi bilan ham bog'liq hisoblanadi.

1.2. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalarini nazariy va huquqiy asoslari

Rivojlangan xorijiy davlatlar, shu jumladan, AQSh, Yaponiya, Germaniya davlatlarida yirik tijorat banklarining mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlari soni 300 tadan oshadi. Ushbu jarayonda, ayniqsa, tijorat banklarining an'anaviy xizmat turlarining sifatini oshirish muxim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining an'anaviy xizmat turlariga kreditlar berish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, mijozlarga kassa va hisob-kitob xizmati ko'rsatish kabi xizmat turlari kiradi.

Tijorat banklari, birinchi navbatda, kreditlash institutlari bo'lganligi sababli, ularning kreditlash faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Banklarning kreditlash faoliyatini rivojlantirish ularning moliyaviy barkarorligini va xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan extiyojlarini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Xalkaro bank amaliyotida XX asrning 60-yillaridan boshlab, kreditlash shakli sifatida faktoring operatsiyalari rivojlana boshladi. Faktoring operatsiyalari - bu mol etkazib beruvchini kreditlash shaklidir. U mol etkazib beruvchining pul mablag'lariga bo'lgan extiyojini qondirish imkonini berish bilan birga, bankning foizli daromadlari hajmini oshishiga olib keladi.

Faktoring atamasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib vositachi, agent degan ma'noni anglatadi. Faktoring operatsiyalari o'tgan asrning 30 yillarida AQShda keng tarzda amalga oshirila boshlandi. O'tgan asrning 60 yillarning boshida amerikalik tovar ishlab chiqaruvchilarning G'arbiy Evropaga tovar eksporti ko'paydi va Evropa Faktoring kompaniyalarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. 60

yillarning o'rtalarida 2 ta yirik faktoring assotsiatsiyalariga asos solindi: IFG (International Factors Group) va FCI (Factors Chain International).

Faktoring operatsiyalari hajmi juda tez ravishda o'sdi, kompaniyalar soni ham oshdi. U esa ham ichki ham tashqi bozorlarda faktoring operatsiyalari rivojlanishiga olib keldi. FCI ma'lumotlariga qaraganda, faktoring operatsiyalari jaxon oboroti 2016 yili 1996 yilga qaraganda 2,3 marta o'sdi va 720,19 mlrd evroni tashqil etdi. Bunda 96% faktoring hajmi ichki faktoringa to'g'ri keldi.

Faktoring ixtisoslashtirilgan savdo vositachilarning, keyinchalik esa savdo banklarining operatsiyasi sifatida XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan.

Ingliz tilidan "factor" so'zi «makler, vositachi» degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, faktoring shubhasiz vositachilik bilan bog'liq operatsiya hisoblanadi. Faktoring keyinchalik to'lovlarni olish bilan tovar va xizmatlarni qayta sotish, qarzlarni undirib olish xuquqiga ega bo'lish sohasida ham qo'llaniladigan bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, faktoring - vositachilik faoliyatining turi bo'lib, bunda faktoring kompaniyasi ma'lum to'lovlar evaziga mol etkazib beruvchi korxonadan mol sotib oluvchilarga tegishli bo'lgan pul mablag'larini undirib olish xuquqini oladi. (debitor qarzdorlikni inkassatsiya qilish).

Faktoring riskli, lekin yuqori foydali bank biznesi, moliya marketingining samarali quroli, iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy jarayonlarga mos bo'lgan bank operatsiyalarining integratsiyalash shakllaridan biri xisoblanadi. Faktoring operatsiyalari xalqaro kreditning shakli bo'lib, eksportyor, importyorlarga pul talablarini maxsus kompaniya tomonidan sotib oladi va ularning inkassatsiyasi xisoblanadi.

Faktoring operatsiyalari sotilgan tovarlar uchun to'lovni kechiktirish shaklida sotuvchilar tomonidan sotib oluvchilarga taqdim etiladigan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. 1988 yil xususiy xuquqni unifikatsiyalash Xalqaro instituti tomonidan qabul qilingan xalqaro faktoring to'g'risidagi konventsiyaga asosan operatsiya quyidagi 4 ta belgilardan kamida 2 tasini qondirsa, faktoring hisoblanadi, deb kelishib olingan. Ular quyidagilardir:

1. Qarz talablarining oldindan to'lash shaklida kreditlashga ega bo'lish;
2. Etkazib beruvchining buxgalteriya hisobini, ayniqsa, sotuv hisobini; yuritish;
3. Uning qarzini inkassatsiya qilish;
4. Etkazib beruvchini kredit riskidan sug'urta qilish.

Shu bilan birga bir qator mamlakatlarda monitoringga 1-belgili qondiradigan operatsiya schyot fakturalarning hisobi tugatiladi.

Faktoring operatsiyalarining asosiy maqsadi shundan iboratki, faktor (bank, faktoring kompaniya) o'z mijozlarining sotib oluvchilarga bo'lgan talabni sotib oladi, ularga 3-4 kun ichida talabning mol etkazib beruvchilardan pul undirish, undirmasligidan qat'iy nazar, albatta, foiz to'lovlarini ushlab qolgandan keyin 70-90% ish haqi to'laydi. Qarzning qolgan qismini shartnomada belgilangan muddatda to'lab berishi lozim. Faktoring to'lagan summasi va qarzning qolgan qismini u keyin sotib oluvchidan undirib oladi. Ayrim xolatlarda, masalan, majburiyatlar bo'yicha savollar tug'ilib qolsa va boshqa holatlarda (kechiktirilsa) 50% va juda kam holatlarda esa oldindan 100% to'lanadi. Bu operatsiyada uchta shakl qatnashadi. Ular:

1. Faktor-vositachi (tijorat banki yoki faktor kompaniyasi);
2. Mol etkazib beruvchi
3. Mol sotib oluvchi

1) Kreditlash limitini ajratish. Faktoring xizmati shartnomasida, agar qarzdor summasi belgilangan limitdan oshib ketsa, bank etkazib beruvchiga barcha qo'shimcha schyotlarni qaytarib berish huquqiga ega, to'lovchining to'lovga qobiliyatsizligida ega barcha uning qarzdorlik to'lovlari bankning etkazib beruvchiga to'lagan summani undirguncha qadar bankka kelib tushadi.

2) Har oylik yuk jo'natish limitini jo'natish. Etkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat'iy nazar, shubhali qarzlardan sug'o'rtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3) Alohida shartnomalar bo'yicha sug'o'rta. Bu usul bir mijozga bir necha tovar etkazib berish emas, balki alohida xolatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo'llaniladi.

Ma'lum holatlarda esa bularning kombinatsiyasi ham qo'llanilishi mumkin.

Faktoring operatsiyalari o'z navbatida ichki (domestic factoring) va tashqi faktoringlar (international factoring)ga bo'linadi. Ichki faktoring operatsiyalarida mahsulot ishlab chiqaruvchi va sotib oluvchi bitta mamlakatda bo'ladi va aksincha turli xil mamlakatlarda bo'lsa u tashqi faktoringga misol bo'ladi.

Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish turi bo'yicha regressli faktoring (recourse factoring) va regressiz faktoring (non recourse factoring) larga bo'linadi.

Regressli faktoring (recourse factoring) da faktoring kompaniyasi sotib oluvchidan pulni olmasdan ma'lum vaqt o'tgandan keyin pulni talab qilish huquqiga egadir. Bu holatda faktoring kompaniyasi likvidli risk (muddati bo'yicha to'lanmagan risk)ni o'ziga oladi, bunda kredit riski maxsulot etkazib beruvchi zimmasida qoladi.

Regressiz faktoring (non recourse factoring)da faktoring riski to'lalgicha faktoring kompaniyasi zimmasiga o'tadi.

Faktoring operatsiyalari ko'rinishiga qarab ochik faktoring (disclosed factoring) va yopik faktoring(undisclosed factoring)larga bo'linadi.

Faktoring nafaqat tovarlarga balki u ko'rsatilgan xizmatlar va ishlarga ham qo'llaniladi.

Jaxon amaliyotida reversiv faktoring keng qo'llanilib, sotib oluvchiga etkazib berilgan maxsulot uchun 90% gacha summasini talab kilishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Faktoring turlari quyidagicha:

1. Kredit riski bo'yicha:

- a) regressli;
- b) qisman regressli;
- c) regressiz

2. Nima uchun zarurati bo'yicha:

a) grafiklar bo'yicha;

b) talab qilish bo'yicha

3. To'lanish xarakteri bo'yicha:

a) kechiktirilgan to'lovlarni moliyalashtirish;

b) kechiktirilgan to'lovlarni kafolatlash.

4. Kim uchun:

a) reversiv faktoring;

b) klassik faktoring.

5. To'lash turini aniklash bo'yicha:

a) etkazib berilgan maxsulot summasidan %;

b) qat'iy belgilangan summa.

6. Geografiyasi bo'yicha (Joylashgan xududi):

a) ichki;

b) xalkaro.

7. Debitorlar kelishuvi bo'yicha:

a) ochiq;

b) ishonchli (sirli)

8. Bank uchun agentlilik faktoringi:

a) bank uchun agentlilik faktoringi

Faktoring quyidagicha afzalliklarga ega:

- aylanma mablag'lar defitsiti bo'lmasligi kafolati. etkazib berilgandan keyin siz 90% summagacha bo'lgan miqdordagi summani sotib oluvchi to'lovni amalga oshirishini kutmasdan olish mumkin.

- kechiktirilgan to'lovlar bilan bog'liq yo'qotilgan risklar, to'lanmagan tovarlar, qalloblik, o'z vaqtida va muddatida to'lanmagan to'lovlar, valyuta kursi o'zgarishi, inflyatsiya riski kamligi;

- debitor qarzdorligi bo'yicha samarali ishlash. To'lov intizomini tekshirish va nazorat qilish. Belgilangan tartibda to'lov tartibini o'rnatish va tekshirish.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi muxim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli ularning

rivojlanishi, ularni moliyalashtirishning yangi maqbul variantlarini jalb qilish va amalga oshirish muxim ahamiyatga egadir. Ayniqsa ko'plab ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishning samarali usullaridan foydalanish qiyin bo'lib tuyiladi. Unda ko'pincha maxsulotlar etkazib berilgandan keyin 30 kundan 90 kungacha bo'lgan vaqtda to'lovlar amalga oshiriladi.

Faktoring operatsiyalari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda keng qo'llanilib kelinmokda. Birgina 2016 yilda Dune bo'yicha 860 mlrd AQSh dollari miqdorida faktoring operatsiyalari amalga oshirildi.¹¹ Bu esa o'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'atlarini ko'rishimiz mumkin. Bu o'sish sur'atlari globalizatsiya sharoitida iktisodiy aloqalarning rivojlanishi hamda ular o'rtasidagi yangi ma'qulroq to'lov shakllarini paydo bo'lganligi bilan izohlash mumkin. AQSh iktisodiyotidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi to'lolarning asosiy qismi faktoring operatsiyalariga to'g'ri keladi. Chunki ishlab chiqaruvchi maxsulotni sotilgandan darhol pulni olishi va sotib oluvchi ham maxsulotni sotib keyin sotuvchiga to'lashi o'tish iktisodiyoti sharoitida bo'lgan davlatlar uchun ayniqsa mablag' etishmagan korxonalar bu moliyaviy instrumentdan keng foydalanish mumkin. Bu esa korxonalar o'rtasida aloqalarni rivojlanishida muxim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning faktoring operatsiyalarini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bo'lib ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va auditini to'g'ri tashqil etish va takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy-normativ xujjatlar va qonunlar, Markaziy Bank yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Xalkaro faktoring operatsiyalari UNIDRUA Konventsiasiga asosan amalga oshiriladi. U 1988 yili Ottava shahrida imzolanganidir. Bu konventsiyaga O'zbekiston ham imzo chekkan.

Faktoring amaliyotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 15 iyundagi 476-sonli «Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring amaliyotlari o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomi asosida amalga

¹¹ www.worldbank.com ma'luotlari asosida tayyorlandi..

oshiriladi (Adliya Vazirligida 2000 yil 3 avgustida 953-son bilan ro'yxatga olingan).

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida faktoring operatsiyalarining rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu holat, avvalo, faktoring operatsiyalarining tijorat banklari jami aktiv operatsiyalarining hajmidagi salmog'ining juda kichikligida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, ularning buxgalteriya hisobi va auditini tashqil qilish borasida ham sezilarli muammolarning mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

Faktoring amaliyotlari talab qilib olguncha asosiy depozit hisobvaraqlari bankda bo'lgan mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Faktoring xizmati ko'rsatish bo'yicha zaruriy shart - to'lovchi muddati o'tgan kredit qarzdorlikga ega bo'lmasligi kerak. Eksport amaliyotlari bo'yicha faktoring xizmati amalga oshirilishi uchun zaruriy shart - yetkazib beruvchi korxona tegishli chet el hamkorlar bilan oldin tuzilgan va hisobga olingan eksport bitimlar (kontraktlar) bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud bo'lmasligi kerak.

Quyidagi hollarda Bank tomonidan faktoring amaliyotlari amalga oshirilmaydi:

- byudjet tashkilotlariga qo'yilgan talablar bo'yicha;
- jismoniy shaxslar qarzdorlik majburiyatlari bo'yicha;
- to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilingan korxonalar majburiyatlari bo'yicha;
- zarar bilan ishlaydigan korxonalar majburiyatlari bo'yicha;
- nolikvid balansga ega bo'lgan korxonalar majburiyatlari bo'yicha;
- kapital moliyalashtirish qo'yilmalar bo'yicha;
- eksport kosignatsiya bitimlar (kontroaktlar) bo'yicha;
- kompensatsiya va barter bitimlar bo'yicha;
- ishlarga bosqichma-bosqich yoki oldindan to'lash bo'yicha;
- oldi-sotdi shartnoma shartlari bo'yicha to'lovchi muayyan vaqt davomida;
- mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lganda, shuningdek sotuvdan keyin;
- xizmat ko'rsatish ko'zda tutilgan bulgan hollarda.

Faktoring operatsiyasini amalga oshirayotganda bank tovar yetkazib beruvchiga uning to'lov talabnomasi bo'yicha to'lov summasining ko'pi bilan 80 foizini qoplaydi. Bank to'lovning qolgan qismini to'lovchidan mablag' kelib tushganidan keyin o'tkazadi.

Tovar yetkazib beruvchida ham, to'lovchida ham 2-kartoteka bo'lmasligi faktoring xizmatlari ko'rsatishning majburiy shartidir.

Faktoring operatsiyasini bajarish to'g'risida tovar yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzishdan oldin bank tovar yetkazib beruvchi balansi qanchalik likvidligini ko'rib chiqadi. Faktoring operatsiyalari bo'yicha xatarni kamaytirish maqsadida tovar yetkazib beruvchi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish
- ishlab chiqarishi barqaror bo'lishi
- to'lovchilar bilan barqaror aloqalarga ega bo'lish

Shartnoma tuzishdan avval tovar yetkazib beruvchi bankka quyidagi hujjatlar to'plamini taqdim etadi:

- sotib olish-sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tegishlicha rasmiylashtirilgan va to'lovchi imzolagan shartnoma

- moddiy boyliklar jo'natilgani, ishlar bajarilgani, xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalar nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va h.k.)

- to'lovchi nomiga taqdim etilgan to'lov talabnomasining nusxasi hamda to'lovchi bu talabnoma summasini to'lashga roziligi (aksept) to'g'risidagi xat

- oxirgi hisobot sanasi uchun tuzilgan, debitorlik va kreditorlik qarzlari talqini berilgan hamda muddati o'tgan debitorlik qarzlarning butun summasi uchun taqqoslash dalolatnomalari ilova qilingan buxgalteriya balansi

- ko'rilgan foyda va zarar to'g'risida hisobot
- boshqa kreditorlarda qarz mablag'lari hamda boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar bor-yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma
- boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar ro'yxati

Faktoring xizmatlari ko'rsatish to'g'risida bank bilan tovar yetkazib beruvchi o'rtasida tuziladigan shartnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- talablari bank ixtiyoriga o'tkaziladigan xaridorlar
- o'tkaziladigan talablarning umumiy summasi
- o'tkaziladigan talablarni to'lashga ajratiladigan kredit summasi
- kredit uchun foiz stavkasi
- shartnomaning amal qilish muddati
- regress huquqi (mijozning o'zidan talab qilish huquqi)
- regress huquqini qo'llash uchun xaridorga belgilanadigan oxirgi to'lov muddati
- tomonlar shartnoma shartlarini buzgani uchun e'tiroz arizalari taqdim etish muddatlari
- shartnoma shartlarini buzganlik uchun tomonlar javobgarligi
- shartnomani bekor qilish shartlari.

Faktoring operatsiyalari shartnomalarini rasmiylashtirish tartibi:

1. Sotuvchi maxsulot etkazib berish uchun barcha hujjatlarni (shartnomalar, schet-fakturalar, yuk qog'ozlari va boshqalar.)
2. Sotuvchi bankka haqiqiy hujjatlarni maxsulot etkazib berish uchun barcha hujjatlarni (shartnomalar, schet-fakturalar, yuk kog'ozlari va boshqalar)ni taqdim etadi.
3. Unda reestr imzolanib, maxsulot etkazib beruvchi hisobiga o'tkaziladi.
4. Shartnomalar, schet-fakturalar, yuk kog'ozlari va boshqalar o'zgartirilishi mumkin emas.
5. Maxsulot etkazib beruvchi to'lov rekvizitlari bilan sotuvchiga belgilangan summani o'tkazib qo'yishini yuboradi.

Faktoring xizmati to'g'risida bank etkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin etkazib beruvchi bankka to'lovchining nomi va manzili, u bilan kelishuv shartlari, barcha qarzdorlik to'lovlari summasi, har bir qarzdorning summasi, u bilan orasidagi munosabat va boshqa tur ma'lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqib, bank kelishuv shartlari to'g'risida qaror

qabo'l qiladi. Faktoring xizmatlari to'g'risidagi kelishuv, odatda, 1-4 yilga tuziladi. Konvetsion faktoringda kelishuv to'liq xizmat amalga oshirilishi, konfidentsial faktoringda esa kelishuv faqat schyot-fakturalar hisobini (diskontirovka) yuritishga to'ziladi.

To'liq xizmat ko'rsatish to'g'risidagi kelishuvda kelishuv regress qilish huquqi bilan to'ziladi (ma'lum vaqtga asosan, to'lov muddatidan so'ng 90 kun), alohida holatlarda esa, etkazib beruvchi bankning ishonchini qozongan bo'lsa, regress huquqi bo'lmasligi ham mumkin. Davlatlararo savdo-sotiq qiladigan korxonalarga xizmat ko'rsatishda eksport va import faktoringidan ham foydalaniladi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari shuningdek, quyidagilar ko'rsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning nazorat summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni to'lash muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun to'lov miqdori;
- etkazib beruvchi tomonidan olinadigan qo'shimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- sotib oluvchi to'lashining oxirgi muddati;
- to'lovchi to'lovni to'g'ri O'z vaqtida amalga oshirmaganda ko'riladigan choralar;
- shartnoma shartlarini bo'zganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring bo'limiga operatsiyalar bo'yicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning bekor qilinish shartlari.

Kelishuvda bank va mijoz huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash;
- mijozga hisob-kitoblar to'g'risidagi xolatni yoki ma'lum to'lovchilar bilan qiyinchiliklar to'g'risidagi axborot taqdim etishi.

Mijoz majburiyatlari:

- bankka barcha etkazib bergan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni shuningdek, klient tovar va xizmatlarni aktseptlangani to'g'risidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifatlar to'g'risidagi hujjatlarni.

- uning tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan o'z vaqtida mavjud bo'lgan kelishmovchiliklarni bartaraf etishi;

- bankka nomaqbo'l o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berish, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta'sir etish doirasini belgilash;

- arbitrajda ishlarni ko'rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etish.

Faktoring operatsiyalari bank balansida aks ettirilib, debet tomonida bank etkazib beruvchiga to'lagan summa, kredit tomonida esa to'lovchi bankka to'lagan summa aks ettiriladi.

Faktoring bo'limi ishlarni amalga oshirish uchun keyingi moliyaviy yil uchun reja to'zadi:

- taxmin qilinayotgan faktoring operatsiyalar hajmi;

- rejalashtirilgan miqdorlar, kreditlarni taqdim etish va ularni to'lash shartlari;

- faktoring operatsiyalarini ko'paytirish uchun foydadan o'tkazmalar miqdori.

Faktoring bo'limlari bankning bosh bo'limlarida hamda bank filiallarida tashqil qilishi mumkin. Uning faoliyati bank ma'muriyati tomonidan ko'zatilib boradi.

Faktoring mijoz-etkazib beruvchi uchun foydalidir. Birinchidan, u umumiy summaning asosiy qismini shu vaqtda oladi va o'zining etkazib beruvchilari bilan hisob-kitobda iqtisod qiladi. Ikkinchidan, bank to'lanmagan majburiyatlarni o'ziga olgandan so'ng, ularning to'lanmaslik riskini oladi. Uchinchidan, etkazib beruvchi

o'z majburiyatlarini olishining aniq muddatini bilib, o'z rejalarini amalga oshirishi mumkin. To'rtinchidan, bank mijozga to'liq summani to'laguncha boshqa xil xizmatlarni ham ko'rsatadi: informatsiya, audit, sug'o'rta, statistika ma'lumotlar va boshqalar.

Faktoring xizmatlari kichik va o'rta tashqilotlarga qo'l keladi, chunki ularning ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati bor, ammo o'z vaqtida to'lanmagan debitor qarzlari hisobiga moliyaviy jihatdan biroz qiynaladilar.

Ammo har bir etkazib beruvchi faktoring operatsiyalari sub'ekti bo'la olmaydilar:

- qarzdorlari ko'p, ammo qarz summalari kam;
- postandart va tor doiradagi tovarlarni etkazib beruvchilar;
- o'z mahsulotlari sotilgandan keyin xizmat ko'rsatish sharti bilan yoki barter orqali sotadigan tashqilotlar;
- subpodryadchiklar bilan ishlovchi-quruvchi va boshqa firmalar;
- o'z maxsulotlarini o'zoq muddatli shartnomalar hamda schyotlar bosqichma-bosqich taqdim etadigan yoki avans to'lovlarini oluvchi tashqilotlar.

Bundan tashqari, quyidagi xolatlarda qarz majburiyatlari o'tkazilmaydi: tashqilotlar to'lovga qobiliyatsiz deb topilganda, jismoniy shaxslardan, shuningdek, tashqilot filiallaridan va tashqilot bo'limlaridan. Buni bankning o'zi risk darajasiga qarab belgilaydi.

Faktoring xizmatlari chuqur tahlildan so'ng quyidagilarga ko'rsatiladi. Ular yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarib hamda bozorda talabga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatadi, ishlab chiqarishni kengaytirishni va foydani ham oshirishni ko'zda tutadilar; moliyaviy mablag'lar etishmasligi bo'larda vaqtinchalik hol bo'ladi.

1-bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklari faoliyatida vositachilik operatsiyalari o'rni va iqtisodiy mohiyati to'g'risida umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, bu turdagi operatsiyalarda banklar foizsiz ko'rinishdagi daromadlarini oshirish, bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari miqdori va ko'lamini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalarining rivojlanishi bankda zamonaviy bank xizmatlarining joriy qilinishi bilan ham bog'liq hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlana borishi bilan tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari turlari ko'payib, avvaldan mavjudlari esa takomillashtirilib borilmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda tijorat banklarining vositachilik operatsiyalarini amalga oshirilishini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy baza yaratilgan va ushbu jarayon takomillashtirilmoqda

Faktoring xizmatlari chuqur tahlildan so'ng quyidagilarga ko'rsatiladi. Ular yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarib hamda bozorda talabga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatadi, ishlab chiqarishni kengaytirishni va foydani ham oshirishni ko'zda tutadilar; moliyaviy mablag'lar etishmasligi bo'larda vaqtinchalik hol bo'ladi.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA FAKTORING OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini tashqil etish va hisobga olish tartibi

Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan erdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar.

Agar kreditlash chog'ida mijoz faqat qat'iy belgilangan summani olsa, faktoringda aylanma miqdori qancha ko'p bo'lsa, shunga muvofiq moliyalash summasi ham shuncha ko'p bo'ladi. Anna shu tufayli, shuningdek, rasmiylashtirish soddalashtirilganligi natijasida faktoring sxemalri mijozlar uchun ham, banklar uchun ham tobora foydali bo'lib bormoqda. Bank xatarlariga kelsak, faktoringning bir necha turi mavjud bo'lib, regressli faktoring va regressiz faktoring shular jumlasidandir. Regressli faktoringda mijoz o'z xaridorlari uchun javobgar bo'ladi va agar xaridor pulni o'z vaqtida to'lamasa, mijoz bu qarzni bankka qaytarishi shart. Shunday qilib, regress yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun faqat ishonchli va sinovdan o'tgan xaridorlarning qarzini bankka o'tkazish orqali moliyalash borasidagi o'z muammolarini hal qiladi. Regressiz faktoring xatarlar past darajada bo'lgan mamlakatlarda rivojlangan, chunki pulni to'lamasilik xatarini bank batamom o'z zimmasiga oladi. Umuman olganda, faktoring yo'li bilan xizmat ko'rsatishda bank xatarlarini kreditlash chog'idagi xatarlarga qiyoslash mumkin.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to'lovchilardan qarzni undirish bo'yicha ushbu muddatda to'lanmagan majburiyatlarga doir choralarni qonunlarda belgilangan tartibda ko'rishlari kerak.

Faktoring operatsiyalari:

- byudjet tashqilotlariga taqdim etiladigan talablar bo'yicha;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;

- to'lovga noqobil deb e'lon qilingan korxonalarning majburiyatlari bo'yicha;
- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
- eksportga oid konsignatsiya kontraktlari bo'yicha;
- kompensatsiya va barter bitimlari bo'yicha;
- ishga bosqichma-bosqich yoki bo'nak bilan haq to'lash bo'yicha;
- to'lovchi shartnomada shartlangan vaqt mobaynida, shuningdek, sotish xizmati ko'rsatilganidan keyin mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lgan oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas.

Faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida bank pul mablag'larini ular haqini to'lash huquqi faktoring shartnomasida ko'rsatilgan summada bankka taqdim etilgan to'lov talabnomalari bo'yicha mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazadi. Bank tomonidan o'tkazilgan summa bilan shartnoma bo'yicha to'lov talabnomasi summasi o'rtasidagi farq bank diskontini tashqil etadi. Faktoring operatsiyasini o'tkazish sxemasi quyidagicha (1-ilova):

1. To'lovni kechiktirish sharti bilan tovar etkazib berish (xizmatlar ko'rsatish);
2. Etkazib berilgan tovar bo'yicha qarzni talab qilish huquqini bankka o'tkazish (tovar etkazib berish hujjatlarini topshirish);
3. Mablag' to'lash (etkazib berilgan tovar summasining 90 % igacha);
4. Etkazib berilgan tovar xaqining xaridor tomonidan to'lanishi;
5. Qolgan mablag'larni (xaridor xaqini to'laganidan keyin 10 %dan ko'proq) vositachilik haqini chegirib tashlagan holda to'lash.

To'lovchida muddati o'tgan kreditorlik qarzining yo'qligi faktoring xizmatlarini ko'rsatishning majburiy sharti hisoblanadi.

Agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, bank tomonidan pul talabi huquqining keyin berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomonidan imzolangan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasi;

- moddiy boyliklar berilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko'chirma nusxalari, ishlarni qabo'l qilish dalolatnomalari va hokazo);

- to'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar ro'yxati;
- to'lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur hujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar;
- berilayotgan talablarning umumiy summasi;
- diskont summasi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da'volarni bayon etish muddatlari;
- shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning mas'uliyati;
- shartnomani bekor qilish shartlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar.

Factoring xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish chog'ida mijoz va bank-moliyaviy agent to'lovchini ushbu bitim to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

To'lovni amalga oshirish uchun to'lovchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'ida mablag'lar etishmagan taqdirda to'lovchining banki bank - moliyaviy agentga to'lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganini ma'lum etadi.

Shartnoma:

- taraflarning o'zaro kelishuviga;
- bank shartnoma shartlarini buzgan taqdirda etkazib beruvchining tashabbusiga;
- etkazib beruvchi shartnoma shartlarini buzgan taqdirda bankning tashabbusiga;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlarga binoan bekor qilinishi mumkin.

Bunda taraflar shartnomaning amal qilishini shartnomada belgilangan muddatlarda bekor qilish to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

Shartnoma bir taraf tomonidan bekor qilingan taqdirda o'zaro da'volar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Eksport mahsulotlari bo'yicha faktoring xizmatlarini vakolatli banklar xorijiy valyutada talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i bo'lgan, faqat o'zlari xizmat ko'rsatadigan korxona va tashqilotlarga, 60 kundan oshmaydigan muddat bilan ko'rsatadilar.

Ular tomonidan faktoring xizmatlari ko'rsatilishi chog'ida bank daromadlari deganda xorijiy valyutada to'lov hujjatining nominal qiymati bilan uning shartnomaga muvofiq bankka berilish summasi o'rtasidagi farq bo'lgan diskont tushuniladi.

Etkazib beruvchi tegishli xorijiy sherik bilan tuzgan, ilgari hisobga qo'yilgan eksport kontraktlari bo'yicha etkazib beruvchi korxonada muddati o'tgan debitorlik qarzining yo'qligi eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlari ko'rsatilishining majburiy sharti hisoblanadi.

Vakolatli banklar faqat belgilangan tartibda o'zlari hisobga qabo'l qilgan eksport kontraktlari bo'yicha va xorijiy korrespondent banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur kontraktlar bo'yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko'rsatadi.

Vakolatli bank eksport kontraktlari bo'yicha faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida mijozning talab qilib olingungacha tranzit depozit hisobvarag'iga mablag'larni, shartnomada ko'rsatilgan diskont summasini chegirgan holda, etkazib beruvchi tomonidan beriladigan talablar summasida erkin almashtiriladigan valyutada o'tkazadi. Mijozning tranzit hisobvarag'iga hisoblab

yozilgan valyuta mablag'laridan majburiy sotishni mijoz to'liq hajmda, diskont summasini chegirmasdan amalga oshiradi.

Pul talabi huquqini berish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin mijoz bu xususda xorijiy kontragent va uning kafili (kafolatchisi)ni xabardor qilishi va ushbu to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun ularga bank - moliyaviy agentning bank rekvizitlarini ma'lum etishi shart.

Agar to'lash shakli sifatida akkreditiv qabo'l qilinsa, bu holda mijoz bank - moliyaviy agent foydasiga akkreditivni qayta rasmiylashtirish amalini o'z vaqtida amalga oshirishi, so'ngra bankni qayta rasmiylashtirish holatidan xabardor qilishi shart.

Faktoring operatsiyalari bo'yicha to'lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank tomonidan kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida 90966-"Xarid qilingan debitorlik qarzlari - Faktoring" shaxsiy hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobvaraq debeti bo'yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarning to'liq summasi aks ettiriladi, kredit bo'yicha esa to'lovchilar to'liq so'ndirgan xarid qilingan debitorlik qarzlari hisobdan chiqariladi.

Taraflar tomonidan faktoring (pul talabini berish) to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin bank-moliyaviy agent mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga, diskont summasini chegirgan holda, o'tkazishni amalga oshiradi.

Mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazishni bank memorial-orderlar bilan amalga oshiradi, ular ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya operatsiyalari amalga oshirilganidan keyin bankning kun hujjatlariga joylashtiriladi, ikkinchi nusxasi belgilangan tartibda mijozga yuboriladi.

Mijoz hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan barcha talablarga rioya etilishi, shuningdek, u tomonidan bankka berilgan pul talablari bo'yicha uning bank hisobvarag'iga biror-bir sabablar bilan hisoblab yozilgan mablag'larni o'z vaqtida o'tkazish uchun (keyingi bank kunidan kechiktirmay) javobgardir.

Faktoring operatsiyalarida mijoz to'lov talabnomasining yuqori qismida shtamp qo'yishi yoki "Faktoring" deb yozib qo'yishi va kredit bo'yicha bank-moliyaviy agent faktoring hisobvarag'ining raqamini ko'rsatishi kerak.

O'zbekiston Respublika Adliya Vazirligidan 2000 yil 3 avgustda 953-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasida Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini olib borish tartibi» nizomida aytilishicha, faktoring – bu bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlari mol etkazib beruvchini aktseptli to'lovchi tomonidan etkazilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijro etilmagan to'lov talabnomalari asosida to'lovlarni talab qilib olish huquqini bank – moliya aktseptiga o'tkazib berishdir, regress huquqini olmagan holda.

Faktoring operatsiyalari hisobi banklarda boshqa barcha operatsiyalar singari O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining buxgalteriya hisob varaqalari rejasi» asosida olib boriladi. Unga muvofiq:

11101 – Sotib olingan debitor qarzdorlik yoki faktoring. Bu hisobvaraqda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar quyidagilardir:

Hisobraqam debetida sotib olingan yoki mijozga to'lab berilgan summa va diskont summasi yotadi.

Hisobraqam kreditida esa to'lovchidan undirib olingan summa, muddati o'tgan faktoring, sudga ko'rilyotgan faktoring va boshqa qonunda ko'zda tutilgan holatlar bo'lishi mumkin.

11103 – Muddati o'tgan faktoring.

11105 – Sud tomonidan ko'rilyotgan faktoring.

11195 – Sotib olingan debitor qarz bo'yicha diskont summasi, keyinchalik u 45217 hisob raqamiga olib boriladi.


11199 – Sotib olingan debitor qarzdin qutilishi mumkin bo'lgan zararga ajratilgan (rezerv) zahira, ushbu summa 56814 - hisobvaraqga olib boriladi.

Bu sxemani bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz:

Birinchi bosqichni shartnoma deb atasak chunki bu bosqichda ikkita korxona o'rtasida biron-bir tovar yoki xizmatlar uchun o'zaro shartnoma to'ziladi. Albatta keyingi ikkinchi – bosqichda oldindan qisman to'lash jarayoni ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yildagi 12 may 1154 – farmoniga asosan 15% dan kam bo'lmagan to'lovdir. Uchinchi bosqich, bu etkazib berilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar va turtinchi bosqich esa mol etkazib beruvchi tomonidan to'lovchining hisobraqamiga qo'yilgan to'lov talabnomasi. Yuqoridagi to'rtta bosqichdan so'ng shartlar bajarilsa faktoring jarayonini amalga oshirish uchun qulay sharoit yuzaga keladi.

Beshinchi bosqich faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun mol etkazib beruvchi va uning banki bilan shartnoma, 90966 – Faktoring. Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha ushbu hisobraqamda faktoringni balansdan tashqari hisobi olib boriladi. Ushbu schyot debetida sotib olingan debitor qarz summasi, kreditida esa to'liq yopilgan faktoring turadi.

Normal holatda amalga oshirilgan ikki korxona orasidagi munosabatlar va ushbu holatni faktoring operatsiyasi bilan tugatilishini quyidagi sxema orqali tahlil qilib chiqish mumkin.



1-rasm. Faktoring operatsiyasini o'tkazilish tartibi.

Shartnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- talabnomalari o'tib berilayotgan xaridorlar;
- o'tib berilayotgan talabnomaning umumiy summasi;
- o'tib berilayotgan talabnomani sotib olish uchun to'lov summasi;

- faktoring xizmati uchun bankka to'lanadigan haq, diskont miqdori;
- shartnomani amal qilish muddati;
- shartnoma shartlari bo'zilganda tomonlar uchun da'vo qilish muddati;
- shartnoma shartlarini bo'zganligi uchun tomonlarning javobgarligi;
- shartnomani bekor qilish shartlari va qonunchilikda belgilangan boshqa hollar.

Ushbu shartnoma to'zilishi uchun mol etkazib beruvchi bankka quyilgan hujjatlarni taqdim etish lozim bo'ladi.

- Tegishli tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomondan imzolangan oldi-sotdi, ishlarni bajarish yoki xizmatni ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma.

- Moddiy boyliklarni berilganligi, ishlarni bajarilganligi, xizmat ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

- To'lovchiga jo'natilgan to'lov talabnomasi nusxasi va to'lovchini ushbu talabnomani to'lashga rozilik xati.

- Boshqa banklarda ochgan hisobraqamlar ro'yxati va to'lovchini moliyaviy xolatini o'rganish uchun kerakli hujjatlar.

Oltinchi bosqichda bank shartnoma asosida memorial order bilan quyidagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi:

$\left\{ \begin{array}{l} \text{ДТ 11101...} \\ \text{КТ 202 ...} \end{array} \right\}$	1. Ushbu yozuv umumiy qarz summasidan bankka qoladigan diskont chegirib tashlashdan qolgan qismi mol etkazib beruvchining asosiy
---	---

depozit hisobraqamiga tushirib beriladi va ushbu hisob raqamdan qonunda belgilangan to'lovlar amalga oshiriladi.

$\left\{ \begin{array}{l} \text{ДТ 11101...} \\ \text{КТ 11195...} \end{array} \right\}$	2. Ushbu yozuv diskont summasi bo'ladi va bu diskont faktoring asosiy qarzi kelib tushishi davomida bank daromadlari hisob raqamiga olib boriladi. Unda ushbu yozuvlar amalga oshiriladi;
--	--

1. Ushbu summaya'ni faktoring summasiga amalga oshiriladigan yozuv faktoring to'liq yopilgandan so'ng teskari yozuv bilan chiqim qilinadi.

Ya'ni, shuni aytib o'tish kerakki, faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni etkazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazilishi ikki nushada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobraqamdan ko'chirmasiga ilova qilinadi.

Yuqoridagi amallar bajarilgandan so'ng, qarzdorlik mol etkazib beruvchidan bank nomiga o'tadi. Demak, to'lovga mol etkazib beruvchi tomonidan qo'yilgan talabnomadan pul mablag'larini oluvchi, ya'ni mol etkazib beruvchi nomidan ko'chirilib (7.) debitor qarzni sotib olgan bank nomiga o'tadi. Albatta, bunda asos bo'lib, bank va mol etkazib beruvchi o'rtasida faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun to'zilgan shartnoma to'g'risida to'lovchini xabardor etish uchun yuborilgan bank va mol etkazib beruvchi tomonidan imzolangan yozma axborot xizmat qiladi. Shu yo'sinda talabnoma bank nomiga o'tkaziladi (8.)

Sxemaning 9. – bosqichi faktoringni yopilishi bo'lib, u quyidagicha bo'lishi mumkin.

Yuqori bandedda aytib o'tilganidek, endi to'lovchini hisobraqamiga kelib tushayotgan mablag'lar hisobidan kartoteka 2 da turgan to'lov talabnomasiga asosan mablag'lar bankda ochilgan faktoring hisob raqamiga kelib tusha boshlaydi. Biroq har qanday sabablar bilan ushbu qarzdorlik bo'yicha to'lov mol etkazib beruvchining xisob raqamiga kelib tushishi mumkin, bunday xolatlarni oldini olish uchun Adliya Vazirligidan 953 - raqam bilan ro'yxatdan o'tgan yo'riqnomaning 4 – bo'limi 4.4 - bandeda mol etkazib beruvchiga, kelib tushgan mablag'larni faktoring hisob raqamiga o'tkazib ko'yish majburiyati yuklanadi. U erda shunday deyiladi: «Mol etkazib beruvchi hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan barcha talablar, shuningdek, bankka o'tkazib berilgan talabnomalar bo'yicha ma'lum bir sabablar bilan uning hisobraqamiga kelib tushgan mablag'larni faktoring hisobraqamiga o'z vaqtida (keyingi kundan kechiktirmay) o'tkazilishini bajarilishiga javobgardir».

Albatta, bu sxema yordamida ko'rib chiqilgan hollar bu faktoring operatsiyasini sodda bir muammosiz ko'rinishi edi. Aslida faktoring yuqori

daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga yarasha risk talab qiladi. Bank shartnoma shartlariga muvofiq, operatsiyalarni amalga oshirishi, etkazib beruvchi va to'lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, etkazib beruvchini shaxsiy hisob varag'i holati to'lovchi tomonidan to'lov talabnomalari to'lanishi va qarzni qaytarilish holati to'g'risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o'tkazib yuborilgan to'lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart.

1-jadval

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'lumot¹²

Faktoring maqsadi	sanoat korxonalarining debitor qarzlarini to'lab berish
Miqdori	talabga asosan
Faktoring muddati	3 oy
Foizi (qayta moliyalashga nisbatdan)	mijoz va bank o'rtasida kelishilgan holda
Faktoring olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar	1.Biznes-reja; 2.So'nggi hisobot sanasiga, debitorlik va kreditorlik qarzdorlikni batafsil ochib ko'rsatilishi hamda muddati 60 kundan oshmagan qarzdorlikning solishtirish dalolatnomalarini ilova qilgan holda soliq organi tomonidan va mustaqil auditorlik kompaniyasi xulosasi bilan tasdiqlangan buxgalterlik balansi; 3.Foyda va zararlar haqida hisobot; 4.Pul oqimlari harakati to'g'risida hisobot; 5.Aylanma mablag'lar aylanish tezligining hisob-kitobi; 6.Boshqa kreditorlar qarz mablag'lari va boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma; 7.O'z kapitali bilan boshqa korxonalarni barpo etishda ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar.

Yana shuni ta'minlab o'tish lozim ediki, faktoring bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganida to'lov talabnomasini yuqori qismida faktoring degan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisob raqami ko'rsatilishi shart.

¹² www.asakabank.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyalari sifati tasniflanishi Adliya Vazirligi tomonidan 1999 yil 11 fevralda ro'yxatga olingan 632 sonli "Aktivlarni tasniflash, hamda kutilmagan xatarlarni qoplash uchun ishlatiladigan zahiralar va ularni tartibga solish tartibi"ga mos kelgan holda amalga oshiriladi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalari tahlili

Tijorat banklari, birinchi navbatda, kreditlash institutlari bo'lganligi sababli, ularning kreditlash faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Banklarning kreditlash faoliyatini rivojlantirish ularning moliyaviy barkarorligini va xujalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashning zaruriy sharti xisoblanadi. Xalkaro bank amaliyotida XX asrning 60-yillaridan boshlab, kreditlash shakli sifatida faktoring operatsiyalari rivojlana boshladi. Faktoring operatsiyalari - bu mol etkazib beruvchini kreditlash shaklidir. U mol etkazib beruvchining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini kondirish imkonini berish bilan birga, bankning foizli daromadlari xajmini oshishiga olib keladi.

Banklarning faktoring operatsiyalarini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bo'lib ushbu operatsiyalarning buxgalteriya xisobi va auditini to'g'ri tashqil etish va takomillashtirish xisoblanadi.

Ayni vaktida, O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida faktoring operatsiyalarining rivojlanish darajasi pastligicha kolmokda. Bu xolat, avvalo, faktoring operatsiyalarining tijorat banklari jami aktiv operatsiyalarining xajmidagi salmog'ining juda kichikligida namoyon bo'lmokda. Bundan tashkari, ularning buxgalteriya xisobi va auditini tashqil qilish borasida ham sezilarli muammolarning mavjudligi kuzga tashlanmokda.

Endi biz respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalarining amaldagi xolatini kurib chikamiz.

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining faktoring
operatsiyalarini jami bank aktivlari hajmidagi salmog'ini o'zgarishi¹³ (foizda)**

№	Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2016 yilda 2014 yilga nisbatan o'zgarishi,
1	Aktivlar	100,0	100,0	100,0	X
2	Faktoring operatsiyalarining jami aktivlar xajmidagi salmog'i	0,35	0,47	0,29	-00,6

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalari aktivlarining umumiy hajmida juda kichik salmoqni egallaydi. Bu esa, ularning faktoring operatsiyalarini rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Buning ustiga, tahlil kilingan davr mobaynida faktoring operatsiyalari salmog'ini o'sishi kuzatilmadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz tijorat banklari aktivlarining sifatini oshirish va uning tarkibida faktoring operatsiyalari salmog'ining yuqori darajasiga erishish tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi va mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish imkonini yuzaga keltiradi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamizning tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilardan iboratdir:

1. Respublikamizning ayrim yirik tijorat banklarida muddati o'tgan faktoring operatsiyalarini o'z vaktida 11103-hisobraqamida aks ettirmaslik hollari mavjud.

Buning natijasida faktoring operatsiyalarining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning soxtalashuvi yuzaga keladi. Hisoblangan daromadlilik ko'rsatkichlari faktoring operatsiyalarining rentabelligini aniq aks ettirmaydi.

¹³ www.finance.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2. Faktoring operatsiyalaridan ko'riladigan zararlarni qoplash maksadida tashkil qilinadigan zaxira ajratmalarini zararlarning real darajasiga mos kelmaslik hollari mavjud.

Zaxira ajratmalarini etarli darajada tashqil kilinmasligi faktoring kreditlari real qiymatini qoplash muammosini yuzaga keltiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1997 yil 21 iyunda tasdiklangan va Moliya vazirligida 1998yil 16 noyabrda 553-son bilan ruyxatga olingan 6l-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya xisobi va xisoboti bo'yicha yo'riqnoma»ning faktoring operatsiyalariga tegishli bo'lgan bir qator bandlariga rioya qilinmaslik hollariga yo'l qo'yiladi. Jumladan:

- yo'riqnomaning 47-bandiga muvofik, mijozlarning hisobvaraqaasi dasturiy yo'l bilan ikki nusxada tayyorlanishi, uning ikki nusxasi mijozga hisobvaraquadan ko'chirma sifatida berishda yoki junatishga mo'ljallangan. Lekin bu holat to'lik amalga oshirilmasligi mumkin.

- yo'riqnomaning 48-bandiga muvofik, hisobvaraqalariga amaldagi tartibda rasmiylashtirilgan hisob-kitob hujjatlari asosida yozuvlar kiritilishi lozim. Shuningdek, hisobvaraquadan bo'lishi lozim bo'lgan bir qator rekvizitlar kiritilgan:

- bu xisob raqamlar qaysi xisob raqamlar bilan korrespondentsiyada bo'lganligi;

- buxgalteriya o'tkazmasining (buxgalteriya provodkasining) mazmuni:

- xisob rakamning kun boshiga va oxiriga qoldiqlari, debet va kredit oborotlari:

- korrespondent-banklarning MFO lari:

- amaliyot to'g'ri kursatilmagan bo'lishi mumkin.

Respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalarining buxgalteriya xisobini takomillashtirish maksadida, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Respublikamizning tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshiruvchi bo'limni alohida qilib tashkil qilish zarur. Faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham bo'limning xodimlari yuritishi lozim. Faktoring

operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya provodkalari va xisob-kitoblar buxgalteriya boshqarmasida emas, balki faktoring bo'limini o'zida amalga oshirilishi lozim. Bankning kreditlash boshqarmasi barcha turdagi kreditlarni tasdiqlash va rasmiylashtirish uchun javobgar bo'lishi mumkin. Faqat faktoring kreditlari uchun ular javob bermasligi kerak.

2. Muddati o'tgan faktoring kreditlarini o'z vaqtida 11103-xisobraqamida aks ettirish va zaxira ajratmalarini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlash lozim.

3. Banklarning faktoring operatsiyalarini jami aktiv operatsiyalar hajmidagi salmog'ini oshirishni ta'minlash lozim.

Buning uchun, avvalo, tovarlarni sotib oluvchilarning va mol etkazib beruvchilarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish lozim.

Baxolash tizimini takomillashtirish moliyaviy koeffitsientlardan keng qo'lamda foydalanish hisobiga ta'minlanishi lozim.

Mijozning moliyaviy holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Qoplash koeffitsienti.

Qoplash koeffitsienti korxonaning aylanma kapitalini muddatli kreditor qarzdorlik summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Qoplash koeffitsienti aniqlangandan so'ng, uni ushbu o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi bilan solishtirish lozim. Agar aniqlangan qoplash koeffitsienti o'rtacha tarmoq ko'rsatkichiga teng bo'lsa yoki undan yuqori bo'lsa, u holda mazkur korxonaning likvidlilik darajasi yuqori xisoblanadi. Agarda korxonaning qoplash koeffitsienti o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan sezilarli darajada past bo'lsa likvidlilik darajasining pastligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich sezilarli kamchilikka ega. Kamchilikning mohiyati shundaki bu ko'rsatkich orqali korxonaning aylanma kapitalini ayrim elementlarini likvidlilik darajasini hisobga olib bo'lmaydi.

Odatda aylanma kapitali asosan pul mablag'lari va qisqa muddatli debitor qarzdorlikdan iborat bo'lgan korxonalar nisbatan likvidli xisoblanadi. Aylanma kapitali tarkibida tovar zaxiralari salmog'i yuqori bo'lgan korxonalarning likvidlilik darajasi past xisoblanadi.

Qoplash ko'effitsientidan O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida foydalanishga xos bo'lgan ikkinchi kamchilik shundan iboratki, respublikamizda ishonarli tarzda doimiy asosda e'lon qilinadigan o'rtacha tarmoq ko'rsatchiklari mavjud emas.

2. Likvidlilik ko'effitsienti:

Ushbu ko'effitsientni hisoblash uchun aylanma mablag'lar va zaxiralar o'rtasidagi farq summasi qisqa muddatli kreditor qarzdorlik summasiga bo'linadi. Likvidlilik ko'effitsienti korxonaning pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitor qarzdorlik kabi aktivlari summasini qisqa muddatli kreditor qarzdorlikka nisbatini anglatadi. Mazkur ko'effitsient korxonaning pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitor qarzdorlik kabi aktivlari summasini qisqa muddatli kreditor qarzdorlikka nisbatini anglatadi. Mazkur ko'effitsient korxonaning real pul oqimi to'g'risida to'laroq tasavvur beradi.

2. Debitor qarzdorlikni qoplashning o'rtacha muddati (DQQ (EM)).

Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

Debitor qarzdorlik x yildagi kunlar soni DKK

EM= _____

tovarlarni kreditga sotishning o'rtacha yillik miqdori

Ushbu ko'rsatkich debitorlar to'lanmaydigan o'rtacha kunlar sonini ko'rsatadi.

4. Debitor qarzdorlikni aylanish ko'effitsienti (DKAK).

Yil davomida tovarlarni kreditga sotish xajmi

DKA

K= _____

Debitor qarzdorlik

Ushbu ko'effitsientlar bir-biriga teskari hisoblanadi. Shy sababli mazkur ikkala ko'effitsientlar qo'llash ham kifoya qiladi. Agar bizga tahlil qilinayotgan davr mobaynida kreditga sotilgan tovarlar summasi ma'lum bo'lmasa, unda biz sotilgan tovarlar umumiy summasini ishlatishimiz mumkin. Odatda, hisob-kitoblarda debitor qarzdorlikning yil oxiridagi summasi olinadi. Lekin, shunday

korxonalar borki, ularda debitor qarzdordikning o'sishi moliyaviy yilning ma'lum davrida kuzatiladi. Bunday sharoitda debitor qarzdorlikni yil oxiriga olish noto'g'ridir, balki uning o'rtacha miqdorini har oyning oxirgi kuniga olish lozim. Agar yil davomida tovarlarni sotishning sezilarli darajada o'sishi kuzatilsa, debitor qarzdorlikning yil oxiridagi qoldigi sotish xajmiga nisbatan noreal tarzda katta bo'ladi. Buning natijasida debitor qarzdorlikni qoplashning o'rtacha davri soxta tasavvur beradi, bunday sharoitda debitor qarzdorlikning yil boshidagi va yil oxiridagi qoldig'ini o'rtacha miqdorini olish maksadga muvofikdir.

5. Kreditor qarzdorlikni qoplash muddati (KKKM).

Qisqa muddatli kreditor qarzdorlik x 365

QKQM = _____

Xarid bo'yicha xarajatlar

Agar xarid to'g'risida ma'lumot olishning imkoni bo'lmasa u holda bir yil davomida sotilgan tovarlarning tannarxini olish mumkin. Masalan, savdo shoxabchalarida sotilgan tovarlarning tannarxi xarid xarajatlari summasiga to'g'ri keladi. Tovar ishlab chiqaruvchilarda esa tannarxga yangi qiymat qo'shiladi, shu boisdan sotilgan maxsulot tannarxini xarid xarajatlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur koeffitsienti hisoblaganda imkon qadar xarid xarajatlari to'g'risida to'liq ma'lumot olish zarur. Agar korxonada mazkur koeffitsient o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa, mijozning o'z majburiyatini vaqtida bajarmasligi ehtimol yuqori hisoblanadi.

6. Zaxiralarning aylanish koeffitsienti (ZAK).

Mazkur koeffitsient quyidagi tartibda hisoblanadi.

Sotilgan maxsulotning tannarxi

DKK(EM)= _____

Zaxiralarning o'rtacha kiymati

Kasirning su'ratidagi miqdor odatda bir yil uchun olinadi. Kasirning maxrajidagi miqdor esa zaxiralarning yil boshidagi va yil oxiridagi qoldig'ining o'rtacha sifatida olinadi. Agar korxona faoliyati mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, zaxiralarning o'rtacha qiymatini hisoblashning murakkab usulidan foydalaniladi.

Zaxiralarning aylanish koeffitsienti ularni tovarlarni sotilishi natijasida debitor qarzdorlikka aylanish tezligini ko'rsatadi. Bu koeffitsientni baxolash uchun uni o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi bilan taqqoslash, shuningdek, uning oldingi davrdagi darajalari bilan taqqoslash zarur.

Odatda zaxiralar qanchalik tez aylansa ularni boshqarish samaradorligi shunchalik yuqori baholanadi. Lekin bu ko'rsatkichdan foydalanishda ehtiyotkorroq bo'lmok lozim. Chunki bu ko'rsatkichni past darajasi zaxiralarni sekin aylanishi yoki ularning ma'lum kismini eskirishi oqibati bo'lishi mumkin. Eskirishni chiqarib tashlash ombordagi maxsulotlarni qayta baxolashga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida, zaxiralarga likvidli aktiv sifatida qarash imkonini bermaydi. Shuning uchun ham aylanish koeffitsientini zaxiralarning ayrim elimentlariga nisbatan qo'llash orqali undan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Ushbu ko'rsatkichlarni qo'llash natijasida mijozning moliyaviy holatini baxolash kredit riskini qulay va maqbul darajada pasaytirish imkonini beradi va bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar sifatida bir-birini to'ldirish xususiyatiga ega.

Faktoring operatsiyasi tijorat banklarining yuqori riskli va yuqori daromadli operatsiyasi hisoblanadi va odatda, pullik talablarni yon berish shaklida mavjud bo'ladi.

Faktoring operatsiyalari tijorat banklarining faoliyatida birinchi marta XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'llanila boshlandi va dastlab AQShning «Bank of Amerika» va «First National Bank of Boston» banklarida yuzaga keldi.

Faktoring operatsiyalari bank mijozlari faoliyatini moliyalashtirishning mijozlar uchun nisbatan qimmat shakli hisoblanadi.

Buning mazmuni shundaki, tijorat banki debitor qarzni diskontlagani uchun mijozdan ikki turdagi to'lovni undiradi, ya'ni komission to'lov va kredit uchun foiz oladilar.

Tijorat banklari faktoring operatsiyalarini amalga oshirish turlariga xaridorning kredit to'loviga layokatligini baxolash, idora jurnallarini yuritish, inkassatsiya xizmati va riskni o'ziga qabul qilish kabi xizmatlar kiradi.

Tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni kreditlar egallaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida faktoring operatsiyalari kreditlash shakli sifatida keng tarqalgan operatsiya xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida faktoring operatsiyalari tijorat banklarining nisbatan zaif rivojlangan operatsiyasi bo'lib qolmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida faktoring operatsiyalari juda kichik salmokni egallaydi.

Respublikamiz bank amaliyotida amalga oshirilgan faktoring operatsiyalari 11101-xisobraqamining debetida hisobga olinadi, diskont summasi esa, 11195-xisobraqamining kreditida hisobga olinadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotidan farqli o'laroq diskont summasi respublikamiz bank amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri daromadga olib borilmaydi, balki sotib oluvchi tomonidan to'lov xaqiqatda amalga oshirilgandan so'ng bank daromadiga olib boriladi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida esa, diskont summasi hisoblangan vaqtning o'zidayok, bank daromadiga olib boriladi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, TIF Milliy bankida 2014-2016 yillar mobaynida faktoring operatsiyalari hajmining sezilarli darajada o'sishi yuz berdi. Ammo faktoring operatsiyalaridan ko'riladigan zararni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari salmog'ining o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi va tahlil qilingan davr mobaynida 5,0 punktga oshganligi sezilarli hol hisoblanadi.

«O'zsanoatqurilishbanki»da 2014-2016 yillar mobaynida faktoring operatsiyalari hajmini yuqori darajada o'sishiga erishildi. Ayni vaqtda, faktoring operatsiyalaridan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining nisbatan yuqori salmog'i saqlanib qolmoqda. Bu esa, bankning faktoring operatsiyalarini samaradorlik darajasini past ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamiz tijorat banklari faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va auditini amalga oshirishda quyidagi muammolarning mavjudligi aniklandi:

- respublikamizning ayrim tijorat yirik tijorat banklarida muddati o'tgan faktoring operatsiyalarini o'z vaqtida 11103-hisobraqamida aks ettirmaslik xollari mavjud;

- faktoring operatsiyalaridan ko'riladigan zararlarni qoplash maksadida tashkil qilinadigan zaxira ajratmalarini zararlarning real darajasiga mos kelmaslik hollari mavjud;

Respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalarining buxgalteriya xisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi amaliy takliflarni ishlab chiqdik:

1. Respublikamizning tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini amalga oshiruvchi bo'limni alohida tashkil qilish zarur. Faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham bo'limning xodimlari yuritishi lozim.

2. Myddati o'tgan faktoring kreditlarini o'z vaqtida 11103-hisobraqamida aks ettirish va zaxira ajratmalarini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlash lozim.

3. Banklarning faktoring operatsiyalarini. jami aktiv operatsiyalar xajmidagi salmog'ini oshirishni ta'minlash lozim.

Mamlakatimizda tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari nisbatan yangi hisoblangan bank xizmatlari hisobiga takomillashib bormoqda. XATB "ORIENT FINANS BANK" vositachilik operatsiyalarining nisbatan yangi turlarini ko'rib chiqamiz.

3- jadval

XATB "ORIENT FINANS BANK"ning vositachilik operatsiyalari va ular uchun belgilangan tariflar¹⁴

№	Vositachilik xizmati turi	Tarif bo'yicha belgilangan to'lov miqdori
1	Faktoring operatsiyasini amalga oshirish	Shartnomaga asosan
2	Faktoring xizmatini ko'rsatish bo'yicha loyihani ko'rib chiqish uchun bir martalik to'lov	Shartnoma summasining 0,5 %, ammo 500 000 so'mdan kam emas
3	Kafolat va kafilliklar berish	Shartnomaga asosan
4	Bank kafolati yoki kafilligini berish bo'yicha loyihani ko'rib chiqish uchun bir martalik to'lov	Shartnoma summasining 0,5 %, ammo 300 000 so'mdan kam emas

¹⁴ XATB "ORIENT FINANS BANK"ning 2016 yil uchun ta'riflari asosida tuzildi

Jadval ma'lumotlarida XATB "ORIENT FINANS BANK"da mamlakatimiz bank amaliyotida u qadar keng tarqalmagan faktoring va trast operatsiyalari kabi vositachilik operatsiyalari uchun belgilangan bank tariflarini ko'rish mumkin. Bu turdagi bank operatsiyalarining nisbatan yangi vositachilik operatsiyalari deb atalishining sababi, bu turdagi operatsiyalarni amalga oshirish mamlakatimizdagi ayrim tur banklar uchungina xos bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda banklarning faktoring operatsiyalari bo'yicha etarli darajada me'yoriy-huquqiy asos yaratilgan bo'lishiga qaramasdan banklar tomonidan taqdim qilinayotgan faktoring xizmatlari summasi etarlicha yuqori emas. Bu holatni mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitorlik qarzlarning boshqarilishi va ularning aylanuvchanligining etarli emasligi bilan izohlash mumkin.

4-Jadval

**Aktsiyadorlik - tijorat "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan mijozlarga ko'rsatilgan faktoring xizmatlari
(1 yanvar holatiga)¹⁵ (mln.)**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2012	2013	2014	2015	2016
Faktoring xizmati miqdori, mln.so'm	3156,92	18393,94	20159,47	1202,0	1000,0
Faktoring operatsiyalarining bank kreditlarining umumiy hajmidagi salmog'i	0,3	1,3	0,9	0,034	0,02

Ushbu jadvalda AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan mijozlarga ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining so'nggi besh yillikdagi o'zgarish tendentsiyasi o'z aksini topgan. Unga ko'ra AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan mijozlariga 2012 yilda 3156,92 mln. so'mlik faktoring xizmatlari

¹⁵ AT "O'zsanoatqurilishbank" yillik hisobotlari asosida tuzildi

ko'rsatilgan bo'lsa, 2013 yilda mazkur ko'rsatkich sezilarli darajada oshib, 18 393,94 mln.so'mga etgan. 2014 yilda ham mazkur o'sish saqlanib qolgani holda bankning faktoring xizmatlari miqdori 20 159,47 mln.so'mni tashkil qilgan. Keyingi yillarda bankning faktoring operatsiyalari keskin kamayish tendentsiyaga ega bo'lib borgan. 2016 yil 1 yanvarga kelib bankda mazkur ko'rsatkich 1mlrd. so'mni tashqil qilganligini ko'rish mumkin. Bankning kredit portfelida faktoring operatsiyalarning ulushi 2012 yilda eng yuqori – 1,3% bo'lgan bo'lsa, 2015 yilda eng past – 0,02 % ga teng bo'lgan.

2.3. Tijorat banklari vositachilik operatsiyalarining banklar foizsiz daromadlarini shakllantirishdagi o'rni

Tijorat banklari daromadlarining shakllanishida bankning vositachilik operatsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarida daromadlarning shakllanishi va bank foydasining yaratilishini tahlil qiladigan bo'lsak, banklarda bank daromadlarining asosiy qismini bankning foizli daromatlari tashkil qilinishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Tijorat banklarning daromatlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin.

Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Banklar daromadlarining shakllanishida faktoring operatsiyalar alohida o'rin tutadi. Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun oladigan foizlar, ya'ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

1. to'lov amalga oshirilgunga qadar bank kredit resurslaridan foydalanganlik uchun foizlar;

2. faktoring operatsiyasining turiga mos ravishda bo'ladigan risklar bilan bog'liq o'rnatiladigan komission mukofot bo'ladi.

Daromad manbaining ushbu turi foizli daromadlar guruhiga kiradi.

Banklarda amalga oshiriladigan vositachilik operatsiyalaridan yana bir turi – trust operatsiyalari uchun komission to'lov ham quyidagi elementlardan tashkil topgan:

- mulkni boshqarish uchun olinadigan o'zgaruvchan to'lov;
- trust ishi bo'yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan fiksirlanuvchi komission mukofot.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari ham bankka ma'lum daromad keltiradi. Faoliyatning ushbu turi ikki qismdan tashkil topadi. Ya'ni, bularga: bankning o'zi tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi; boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq ikkilamchi bozordagi operatsiyalar hamda korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish bilan bog'liq xizmatlar kiradi. Bankning tijoratning ushbu turida oladigan daromadi o'zi chiqargan va boshqa emitentlarning aktsiyalar kursidagi farqlanish va xususiylashtirish uchun oladigan xizmat to'lovlaridan tashkil topadi.

Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlarini olish uchun yoki hisob - kitoblarni amalga oshirish uchun turli xil kafillik va kafolatnomalar beradi va evaziga pul shaklida komission mukofot oladi. Ba'zi hollarda mijoz uchun kafillik bank tomonidan obro'ni oshirish kabi maqsadlar uchun ham beriladi.

Banklarning daromadlari yuqoridagi faoliyat turlarining barchasidan yoki bir qismidan tashkil topishi mumkin.

Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalarining bank daromadlariga qay tarzda ta'sir qilishini tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari hisobvaraqlar rejasini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra aytish mumkinki, banklarning vositachilik operatsiyalari natijasida quyidagicha bank daromadlari shakllanishi mumkin:

- O'zRMBiga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar;

- Boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar;

- Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlar;

- Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar- Faktoring;

- Bankning trast operatsiyalari bo'yicha daromatlari;

- Akkreditivlar va aktseptlar bo'yicha vositachilik va boshqa xizmatlar uchun olingan daromadlar;

- Kreditlar bo'yicha vositachilik daromatlari;

- Mahalliy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar;

- Xorijiy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar;

- Kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar;

Tijorat banklarida vositachilik operatsiyalarining bank daromatlari shakllanishidagi o'rnini ko'rish uchun bank daromadlarini tahlili qilamiz. Bank daromadlarini tahlil qilishda bankning foizli va fozsiz daromatlari, ularning shakllanish manbalari, bank yalpi daromadidagi foizli va foizsiz daromadlarning ulushi kabilarni tahlil qilish lozim.

Banklarning vositachilik operatsiyalari natijasida qo'lga kiritiladigan daromad asosan bankning foizsiz daromadlarida o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda tijorat banklari vositachilik operatsiyalarining bank foydasining shakllanishiga ta'sirini o'rganishda bankning foizsiz daromadlariga alohida to'xtalib o'tish zarur.

Ma'lumki, vositachilik xizmatlari ko'rsatish evaziga olinadigan haq odatda komission ko'rinishiga ega bo'ladi. Bank vositachilik operatsiyalarining bank daromadlariga ta'sirini o'rganishda bank daromatlari tarkibidagi komission daromadlarni va uning shakllanish asosini tahlil qilish zarur.

Quyida mamlakatimiz tijorat banklarining 2016 yildagi daromadlarining solishtirma tahlili keltirib o'tilgan.

5- jadval

01.01.2017 yil holatiga tijorat banklar daromadlarining solishtirma tahlili (mln. so'm)¹⁶

Bank nomi	Daromadlar	Foizli daromadlar	Ulushi%	Foizsiz daromadlar	Ulushi%
Milliy bank	748 921	427 789	57%	321 132	43%
Sanoatqurilish bank	583 265	379 624	65%	203 641	35%
Asaka bank	693 866	478 576	69%	215 290	31%
Qishloq qurilish bank	407 142	362 382	89%	44 760	11%
Ipoteka bank	446 001	250 938	56%	195 063	44%
Xalq banki	497 523	381 521	77%	116 002	23%
Agrobank	570 802	345 648	61%	225 154	39%
KDB Bank Uzbekistan	79 589	25 717	32%	53 872	68%
Xamkor bank	363 976	218 116	60%	145 860	40%
Ipak Yo'li bank	212 423	102 178	48%	110 245	52%
Kapital bank	233 068	111 718	48%	121 350	52%
Aziya Alyans bank	160 319	39 347	25%	120 972	75%
Aloqabank	173 408	122 028	70%	51 380	30%
Mikrokredit bank	178 229	112 378	63%	65 851	37%
Trastbank	124 447	61 535	49%	62 912	51%
Turon bank	144 044	68 424	48%	75 620	52%
Invest Finans Bank	67 528	33 590	50%	33 938	50%
Orient-finans bank	77 916	22 020	28%	55 896	72%
Savdogar bank	92 580	59 492	64%	33 088	46%
UT bank	14 830	8 958	60%	5 872	40%
Davr bank	32 701	14 979	46%	17 722	54%
Turkiston bank	15 880	11 318	71%	4 562	29%
Caderat	3 000	2 253	75%	747	25%
Universal bank	12 878	6 145	48%	6 733	52%
Ravnaq bank	8 603	6 127	71%	2 476	29%
Hi-tech bank	5 910	4 063	69%	1 847	31%
Jami	5 948 849	3 656 864		2 291 985	

¹⁶« Ahbor – reyting» reyting agentligi ma'lumotlari asosida tayorlandi 2017 yil

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz tijorat banklari orasida 2016 yil yakunlariga ko'ra eng katta daromadga TIF Milliy bank erishgan. Ushbu bank 2016 yilda 748921 mln. so'm daromad qilgan bo'lsa, undan keyingi o'rinda turuvchi Asakabankning bu davrdagi daromadlari summasi 693866 mln. so'mga teng bo'lgan. Tijorat banklari orasida daromadlilik darajasiga ko'ra keyingi o'rinlarda O'zsanoatqurilishbank va Agrobank turibdi. Hamkorbank 363976 mln. so'm daromad qilgan va bu boshqa banklarga nisbatan taqqoslaganda o'rtacha natija bo'lib hisoblanadi.

Umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, bu davrda banklar daromadlari tarkibida banklarning foizli daromadlari ulushi foizsiz daromadlarga nisbatan ancha yuqori. Shundan bo'lishiga qaramasdan ayrim tijorat banklarining foizsiz daromadlari bank foizli daromadlariga qaraganda bir necha barobar katta ekanligini kuzatish mumkin. Xususan, Aziya Alyans bankda bankning foizsiz daromadlarining jami bank daromadlaridagi hissasi 75 % dan yuqori. Orient-finans bankda mazkur ko'rsatkich 72 % ga teng bo'lgani holda, KDB bank ning 2016 yil yakunlariga ko'ra foizsiz daromadlari jami jaromadlarining 68%ini tashkil qilganligini kuzatish mumkin. Mamlakatimiz tijorat banklari orasida eng kam foizsiz daromadlar Qishloq Qurilish bankda - 11% va Xalq bankida -23 %ga teng bo'lgan. Banklar daromadlarining tahlil qilinishi natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, daromadlar tarkibida foizsiz daromadlarning ulushi yuqori bo'lgan banklarda bankning vositachilik xizmatlarini ko'rsatish nisbatan yaxshiroq yo'lga qo'yilgan.

Boshqa tomondan olib qaraydigan bo'lsak, banklar vositachilik operatsiyalarining ko'p miqdorda amalga oshirilishi, bankning an'anaviy xizmatlarga qaraganda yangi bank mahsulotlari taklifiga asosiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Daromadlar tarkibida foizsiz daromadlari eng yuqori ulushga ega bo'lgan Aziya Alyans bankda mijozlar hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish amaliyotlari keng tartibda joriy qilingan.


**Tijorat banklari foizsiz daromadlari va ularning jami daromadlardagi
salmog'ining o'zgarishi¹⁷**

Tijorat banklari	2015 yil		2016 yil	
	Foizsiz daromadlar (mln so'm)	Jami daromadlardagi ulushi %da	Foizsiz daromadlar (mln so'm)	Jami daromadlardagi ulushi %da
Milliy bank	309 993	47 %	321 132	43 %
Asaka bank	207 373	37 %	215 290	31 %
Hamkorbank	115 125	47 %	145860	40 %
O'zsanoatqurilish bank	148 308	30 %	203 641	35 %
Xalq banki	96 678	23 %	116 002	23 %
Agrobank	190 806	40 %	225 154	39%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan Respublikamizning eng yirik tijorat banklarida foizsiz daromadlarning mutloq summasi oshgan. Ammo, bank daromadlari tarkibida foizsiz daromadlarning ulushi turlicha o'zgargan. 2015 yilda Milliy bankda foizsiz daromadlarning bank jami daromadlaridagi ulushi 47 % ga teng bo'lgan bo'lsa, 2016 yil yakunlariga ko'ra uning salmog'i 43 % ga pasaygan. Asaka bankda 2015 yilda foizsiz daromadlarning bank jami daromadlaridagi ulushi 37 % bo'lgan va 2016 yil yakunlariga ko'ra mazkur ko'rsatkich 31% ga teng bo'lgan. Hamkorbankda foizsiz daromadlarning ulushi o'tgan yilga nisbatan pasaygan va yil yakunida jami daromadlarning 40 %ini tashkil qilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, banklar foizsiz daromadlarining asosiy qismi komission ko'rinishdagi daromatlardan, boshqacha qilib aytganda, vositachilik operatsiyalari natijasida shakllanadi.

¹⁷ Tijorat banklarining yillik hisobotlari asosida tuzildi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O'zsanoatqurilish bankda 2016 yilda vositachilik operatsiyalari hajmi kengaygan.




2- rasm. Tijorat banklari daromadlari strukturasi (%da)¹⁸

Bu rasmda 2015 – 2016 yillar uchun respublikamiz tijorat banklari daromadlarining strukturasi va uning o'zgarishi o'z aksini topgan. Har ikkala yilda ham bank daromadlari tarkibida kreditlar va boshqa aktivlar bo'yicha foizli daromadlarning ulushi ancha yuqori. Bank foizsiz daromadlari tarkibida komission daromadlarning ulushi eng yuqori bo'lgan. 2015 yilda tijorat banklari jami daromadlarining 29,1 %i komission daromadlar hisobiga shakllangan bo'lsa, 2016 yiga kelib komission daromadlarning bank daromadlaridagi salmog'i 27,65 % ga teng bo'lgan. Bank daromadlari tarkibida xorijiy valyutadan olingan daromadlarning ulushi 2015 yilda 4,25 %ni tashkil etgani holda, 2016 yil yakunlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 4,12 %ga teng bo'lgan.

Tijorat banklari vositachilik operatsiyalari natijasida shakllanadigan foizsiz daromatlardan yana biri banklarning tijorat operatsiyalaridan olingan daromadlari bo'lib hisoblanadi. Banklar jami daromadlari tarkibida tijorat operatsiyalaridan olingan daromadlarning ulushi eng past ko'rsatkich bo'lib, 2013 yilda tijorat

¹⁸ "Ahor-reyting" yillik hisobotlari asosida tuzildi

operatsiyalari natijasiga bank jami daromadlarining 0,0016%i shakllangan bo'lsa, 2014 yilda bu ko'rsatkich yanada qisqarib 0,0005% ni tashkil qilgan.



3-rasm. AT «Asaka» bankning foizsiz daromadlari o'zgarishi

(31 dekabr holatiga, mln. so'm)¹⁹

Rasmda AT “Asaka” bankning foizsiz daromadlarining tarkibiy o'zgarishlari o'z aksini topgan. Unga ko'ra, bank fozsiz daromadlari tarkibida 2013 yildan 2015 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida komission daromadlarning ulushi eng yuqori bo'lgan. 2016 yilga kelib bank foizsiz daromadlari tarkibida xorijiy valyutadan sof daromadlarning ulushi 81251 mln. so'mni tashkil etgan. Bu holat bankda xorijiy valyutalar bilan bog'liq operatsiyalar, xususan, vositachilik operatsiyalarining hajmi oshganligidan dalolat beradi.

AT “Asaka” bankda komission haq olishga asoslangan vositachilik operatsiyalarining hajmi 2016 yilda o'tgan yilga nisbatan qisqargan. Xususan, 2015 yilda bankning komission daromadlari summasi 78435 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda bu turdagi daromadlar 68512 mln. so'mga teng bo'lgan.

2-bob bo'yicha xulosa

¹⁹ AT “Asaka bank” yillik hisobotlari asosida tuzildi

Faktoring operatsiyasi tijorat banklarining yuqori riskli va yuqori daromadli operatsiyasi hisoblanadi va odatda, pullik talablarni yon berish shaklida mavjud bo'ladi.

Faktoring operatsiyalari tijorat banklarining faoliyatida birinchi marta XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'llanila boshlandi va dastlab AQShning «Benk of Amerika» va «Ferst Neshnl benk of Boston» banklarida yuzaga keldi.

Faktoring operatsiyalari bank mijozlari faoliyatini moliyalashtirishning mijozlar uchun nisbatan qimmat shakli hisoblanadi.

Buning mazmuni shundaki, tijorat banki debitor qarzni diskontlagani uchun mijozdan ikki turdagi to'lovni undiradi, ya'ni komission to'lov va kredit uchun foiz oladilar.

Bob bo'yicha umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, tijorat banklarida vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish barqaror o'sish tendentsiyasiga ega. Banklar tomonidan foizsiz daromadlar olinishida hisobvaraqlarga hizmat ko'rsatish bilan bog'liq vositachilik operatsiyalari faktoring va boshqa vositachilik operatsiyalarining ahamiyati ortib bormoqda.

3-BOB. TIJORAT BANKLARI FAKTORING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlanish tendentsiyasi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari miqdor va sifat jihatidan yaxshilanib bormoqda. Banklarda foizsiz daromadlarning shakllanishida banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan vositachilik operatsiyalarning ahamiyatini ta'kidlab o'tish lozim.

Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalar har birining so'nggi yillardagi o'zgarishini kuzatadigan bo'lsak, banklarning hisob – kassa amaliyotlari va tranzaktsiyalar bilan bog'liq operatsiyalari, xorijiy valyutadagi hisobvaraqlar bilan operatsiyalar soni oshib borgan.

Banklarning hisob – kassa amaliyotlari va tranzaktsiyalar bilan bog'liq vositachilik operatsiyalarining rivojlanishiga bank chakana xizmatlari, xususan plastik kartochkalar bilan bog'liq o'tkazmalar miqdorining oshishi ayniqsa ijobiy ta'sir qilgan.

Mamlakatimizda so'nggi vaqtlarda qabul qilinayotgan hukumat doirasidagi qarorlar va farmonlarda ham bevosita banklarning hisob – kassa amaliyotlari va tranzaktsiyalar bilan bog'liq vositachilik operatsiyalarining rivojlanishi, xususan plastik kartochkalar bilan bog'liq bank amaliyotlarining rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi PQ – 2344 sonli Qarorida ham plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni rivojlantirish borasida to'xtalib o'tilgan.

**ATIB “Ipoteka bank” da hisob – kassa amaliyotlari bilan bog’liq
vositachilik operatsiyalari²⁰**

№	Xizmat turi	To’lov miqdori	Eslatma
1	Elektron to’lov sistemalari orqali jamg’arma kassalarda aholidan to’lovlarni qabo’l qilish	Tushgan summaning 1,5 % idan kam bo’lmagan summada	Shartnomaga muvofiq xo’jalik sub’ekti hisobidan
2	Fuqarolar buyurtmasiga ko’ra omonatlarni qidirish	½ eng kam ish haqi miqdorida	Mijoz arizasi bo’yicha
3	Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning xodimlariga oylik maosh va unga tenglashtirilgan to’lovlarni jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga o’tkazish	1 foizgacha	Har bir xo’jalik yurituvchi sub’ektga alohida yondashgan holda xo’jalik yurituvchi sub’ekt hisobidan shartnoma asosida undirish
4	Boshqa bankdagi jismoniy shaxslarning omonat va plastik karta hisobraqamlaridan mablag’larni Ipoteka bankning plastik kartochkalariga o’tkazib berish.	3 foiz	Amaliyot summasidan

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rish mumkinki, mamlakatimiz banklari orasidagi eng yirik ettitalikka kiruvchi ATIB Ipoteka bankda mijozlarga kassa amaliyotlari bo’yicha bir qancha xizmat turlari taklif etilmoqda va ular uchun to’lanadigan komission to’lovlar miqdori belgilab berilgan. Bundan tashqari e’tibor qiladigan bo’lsak bank tomonidan taklif etilayotgan vositachilik xizmatlari plastik kartochkalar bilan bog’liq. Banklarda naqd pulsiz hisob – kitoblarning rivojlanib borishi bilan vositachilik operatsiyalarining turlari ko’payib va sifat jihatdan yaxshilanib bormoqda. Elektron to’lov tizimining takomillashuvi ham bu borada banklarga yangi imkoniyatlar yaratib berayotganligiga guvoh bo’lishimiz mumkin.

Mamlakatimizda tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari nisbatan yangi hisoblangan bank xizmatlari hisobiga takomillashib bormoqda. XATB

²⁰ ATIB “Ipoteka bank” 2016 yil uchun belgilangan ta’riflar asosida ishlab chiqildi..

“ORIENT FINANS BANK” vositachilik operatsiyalarining nisbatan yangi turlarini ko'rib chiqamiz.

1. Faktoring operatsiyasini amalga oshirish;
2. Faktoring xizmatini ko'rsatish bo'yicha loyihani ko'rib chiqish uchun bir martalik to'lov;
3. Kafolat va kafilliklar berish;
4. Bank kafolati yoki kafilligini berish bo'yicha loyihani ko'rib chiqish uchun bir martalik to'lov;
5. Trast operatsiyalari;

XATB “ORIENT FINANS BANK”da mamlakatimiz bank amaliyotida u qadar keng tarqalmagan faktoring va trast operatsiyalari kabi vositachilik operatsiyalari uchun belgilangan bank tariflarini ko'rish mumkin. Bu turdagi bank operatsiyalarining nisbatan yangi vositachilik operatsiyalari deb atalishining sababi, bu turdagi operatsiyalarni amalga oshirish mamlakatimizdagi ayrim tur banklar uchungina xos bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda banklarning faktoring operatsiyalari bo'yicha etarli darajada me'yoriy – huquqiy asos yaratilgan bo'lishiga qaramasdan banklar tomonidan taqdim qilinayotgan faktoring xizmatlari summasi etarlicha yuqori emas. Bu holatni mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitorlik qarzlarning boshqarilishi va ularning aylanuvchanligining etarli emasligi bilan izohlash mumkin.

Banklar tomonidan vositachilik operatsiyalarining amalga oshirilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, bir qator banklarda ayrim vositachilik operatsiyalarni amalga oshirish juda qisqarib ketgan yoki butkul to'xtab qolgan.

3.2. Tijorat banklari faktoring operatsiyalarini takomillashtirish istiqbollari

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda to'lov muddatlariga rioya qilish, hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitor va kreditor qarzdorliklarini imkon boricha kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bank faktorlar faoliyati, aynan

tovar etkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda to'lovlar xatari va muddatlilik muammosini hal qilish, ushbu munosabatlarning barqaror bo'lishiga ko'maklashishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida banklar faktoring operatsiyalarini 90-yillar boshidan amalga oshira boshladilar. Lekin tegishli qonuniy va me'yoriy negizning yo'qligi faktoringni rivojlanishiga to'sqinlik qilib, banklarga undan keng foydalanishga imkon bermadi.

Fuqarolik Kodeksining 42-bobi pul talabnomasi ostida mablag' bilan ta'minlash, Markaziy bank tomonidan 621- Nizomni, (953 yo'riqnoma) kiritilishi, banklar tomonidan hamma erda faktoringni qo'llash uchun qonuniy va me'yoriy negizini ta'minladi, hamda faktoring xizmati bu orada banklar orasida kengaya boshladi. Bunga misol qilib quyidagi jadvalni keltirish mumkin:

Faktoring mijozga berilishidan avval bankda ochilgan bo'lim yoki kredit bo'limida bu mijoz va uning kontragenti, ya'ni to'lovchi yaxshilab o'rganib chiqiladi, albatta endi e'tiborni jadval ma'lumotlariga qaratadigan bo'lsak, bankda 2016 yil holatiga ko'ra ajratilgan kreditlar va ko'rsatilgan faktoring xizmatlarini jami summasi 49703,3 mln so'mni tashqil etdi. Bo'lardan, faktoring xizmati 2122,2 mln so'mni, ya'ni 4,4%ni tashkil qilgan. Albatta, bu salmoq oldingi yillarga nisbatan yuqori bo'lsada, xorijiy davlatlar banklari ko'rsatkichlaridan ancha past. O'zbekistonda faktoring operatsiyalarni rivojlantirish sohasida ba'zi bir muammolar va rezervlar mavjud.

8-Jadval

«O'zsanoatqurilishbank» tomonidan 01.01.2016 yil holatiga berilgan maqsadli kreditlar va faktoring xizmatlari to'g'risida ma'lumot²¹

²¹ www.o'zsanoatqurilishbank.uzi yillik ma'lumotlari asosida tuzildi

	Tijorat bank filiallari nomi	Ajratilgan kreditlar va ko'rsatilgan faktoring xizmatlar to'g'risida	shu jumladan		O'zaro qarzlار kamaytirish borasida erishilgan iqtisodiy samara
			Kreditlar	faktoring xizmatlari	
	A	1	2	3	4
1	Nukus	569,8	569,8	0	3257
2	Andijon	542,7	542,7	0	2139,3
3	Buxoro	4882	4882	0	20881,7
4	Kashkadaryo	10699,4	10699,4	0	52804,7
5	Navoiy	695	653,1	41,9	1841,9
6	Namangan	450,9	450,9	0	1361,7
7	Samarqand	1021	904,2	116,8	7422,4
8	Sirdaryo	686,6	686,6	0	2747
9	Surxandaryo	0	0	0	0
10	Toshkent v.	145,5	139	3,5	583,2
11	Farg'ona	7712	7712	0	26891
12	Xorazm	891,6	891,6	0	3980,4
13	Toshkent sh.	21409,8	19449,8	1960	805775,3
	Jami:	49706,3	47581,1	2122,2	929685,6

Markaziy bank tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun ro'yxat mol etkazib beruvchining asosiy hisobraqami ochilgan bankdagina berilishiga ruxsat etgan.

Faktoring uchun bankning o'z mablag'lari manba bo'ladi, ya'ni banklar faktoring xizmatini o'z sarmoyasi hisobiga amalga oshiradi. Mamlakatimizda iqtisodiy tizimi aniq vaziyatini hisobga olib, 953-yo'riqnomaga asosan, faktoring muddati 90 kun qilib belgilangan va faktoring operatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ushbu operatsiya regress huquqisiz amalga oshirilishi, ya'ni bank mol etkazib beruvchi hisobvarag'idan faktoring shartnomasi bo'yicha

o'tkaziladigan summani qaytarib olishga haqli emas. Bu shart hozirgi kunda faktoring-amaliyotini o'zini va uning samaradorligini rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda faktoring operatsiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolardan biri bu kadrlar masalasidir. Ularni etarli darajada tayyorlash uchun shu masalaga alohida e'tibor bilan qarash, moliya institutlarida, maorifda, tijorat banklarida bu sohani rivojlantirish uchun yanada kattaroq, ahamiyat berishimiz va hayotga tadbiiq etishimiz lozim. Yana bir muammo bu axborot-texnologiya ta'minotini rivojlantirish, aynan, shu faktoring operatsiyalaridan foydalanuvchi va bank orasida yoki ushbu operatsiyada bevosita qatnashayotgan uch tamon orasida axborot almashinish banki tomonidan nazorat qilish uchun yangi informatsion texnologiyalar ishlab chiqish kerakligi, aniqrog'i yangilab turish va foydalanuvchi uchun yanada qulayroq yo'llarini topish va rivojlantirish kerakligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Yana e'tibor qaratish lozim bo'lgan masala korxona va tashqilotlarga faktoringning afzalligini tushuntirishdir. Bu operatsiya orqali sotib oluvchi ega bo'ladigan imkoniyatlar :

- sifatsiz tovarni sotib olish riskini bartaraf etish;
- mablag'lar aylanishini tezlatish, raqobatbardoshligini yaxshilash;
- xarid hajmini ko'paytirish mumkinligini ularga etkazish;

Undan tashqari faktoringning iqtisodiy afzalliklari:

- likvidlilik, rentabellik va foydani ko'payishi;
- debitor qarzdorlik naqd pullarga aylanishi;
- debitorlar tomonidan to'lovlar muddatlariga rioya qilishidan mustaqil bo'lishi;

- oborot hajmini kengaytirish;
- daromadlilikni oshishi;
- o'z kapitalini iqtisodiy;
- moliyaviy rejalashtirishni yaxshilash.
- to'lay olmasligi riskini kamayishi va banklarni bozor munosabati sub'ektlariga tushuntirish sohasida ishlar olib borish lozim.

3-bob bo'yicha xulosa

Hozirgi kunda Respublikamizda faktoring operatsiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolardan biri bu kadrlar masalasidir. Ularni etarli darajada tayyorlash uchun shu masalaga alohida e'tibor bilan qarash, moliya institutlarida, tijorat banklarida bu sohani rivojlantirish uchun yanada kattaroq, ahamiyat berishimiz va hayotga tadbiq etishimiz lozim.

Yana bir muammo bu axborot-texnologiya ta'minotini rivojlantirish, aynan, shu faktoring operatsiyalaridan foydalanuvchi va bank orasida yoki ushbu operatsiyada bevosita qatnashayotgan uch tamon orasida axborot almashinish banki tomonidan nazorat qilish uchun yangi informatsion texnologiyalar ishlab chiqish kerakligi, aniqrog'i yangilab turish va foydalanuvchi uchun yanada qulayroq yo'llarini topish va rivojlantirish kerakligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

Yana e'tibor qaratish lozim bo'lgan masala korxona va tashqilotlarga faktoringning afzalligini tushuntirishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ko'pchilik kredit muassasalarining faktoring xizmatini ko'rsatishga tayyor emasligini muhim bir muammo deb qarash mumkin. Shuni ham aytish kerakki, faktoring bank ishining bir qismi emas, balki uni "operatsiya" deb atash noto'g'ri hisoblanadi, chunki faktoring bir martali bitim emas, balki doimiy xizmat ko'rsatish shaklida namoyon bo'ladi. Bular hammasi qarorlarni qabul qilishda maxsus jarayonlarni va risklarni boshqarishni talab qiladi.

Keyingi muammo – mamlakatning ko'pchilik banklari faoliyatining o'rta muddatli investitsiyalarga tayyor emasligidir. Bu erda asosiy to'sqinlik faktoringni moliyalashtirilishi emas, balki ishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli tsikl hisoblanadi. Bu tsikl malakali bajaruvchilarga ega bo'lganida ham uzoq davom etadi.

Bu bilan O'zbekistonda faktoringning istiqbollari optimistik deb baholash mumkin.

Umuman, faktoring sarmoya aylanishini tezlashtirish, qarzni undirib olish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish, banklar o'rtasida munosabatlarni osonlashtirishga yordam berib, pulni hisob-kitob tizimini muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, faktor riskni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun ko'proq axborot va bilimga ega. Ikkinchidan, faktoring kompaniyasi alohida qarzdorlar bilan shug'ullanmasdan, to'lay olmaslikda, bankrotni bartaraf etuvchi debitor qarzdorlik portfelini shakllantiradi.

Shunday qilib, faktoring quyidagi hollarda foydali hisoblanadi:

1. Sotib oluvchi etkazib beruvchining kredit tarixiga ega bo'lmasdan, bir martalik etkazib berishlarida.
2. Etkazib beruvchi etkazib berishlarning ko'p tarmoqni tizimiga ega bo'lganda.

Faktoring, etkazib beruvchini balans summasini kamaytiradi hamda o'z kapitali va jalb qilingan kapitali nisbatining ko'rsatishlarini ko'paytirib, uning tuzilishini yaxshilaydi.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, faktoring bo'yicha bajarilgan amallar asosida iqtisodiyotdagi hisobdorliklar tezlashishi, tovar etkazib beruvchi korxona o'z moliyaviy holatini barqarorlashtirish, bank o'z mablag'laridan unumli foydalanish va ma'lum daromad olishi mumkin, asosiysi esa mamlakat tovar aylanmasini qaysidir ma'noda tezlashtiradi. Shuni shubhasiz aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalarining qo'llanilishi bank tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu nafaqat, bank tizimiga, ayniqsa, hozirgi zamonda kichik biznesni rivojlantirish uchun qo'l keladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faktoring xizmatlari, birinchidan, iqtisodiyotga tushayotgan to'lovlarni oshiradi, ikkinchidan esa, O'zbekiston bank tizimini jahon standartlariga yaqinlashtirib, butun dunyo firmalariga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Banklar faoliyati tahlil qilish natijasida banklarning faktoring operatsiyalari xususida quyidagi xulosa shakllantirildi:

– Banklar amaliyotida faktoring operatsiyalarining rivojlanish tendentsiyasi barqaror emas. Banklarda faktoring operatsiyalarini amalga oshirishda risk darajasi ancha yuqori. Bu mamlakatimizda ayrim ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida korxonalar debitorlik qarzlari aylanuvchanligining pastligi natijasida kelib chiqmoqda. Faktoring mijozlarga xizmat ko'rsatishning universal shakli hisoblanadi, chunki mijozlar o'z talablari (da'volari) bo'yicha buxgalteriya xisobini yuritish, ularning to'lovliligini tekshirishdan holi bo'lishadi. Banklar mol sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi axborotni mijozlariga etkazishlari, xorijiy davlatlardagi to'lovlar kafolatini o'z bo'yniga olishlari mumkin. Banklar uchun bu operatsiyalar yuqori daromad keltirgani uchun ham ular bu operatsiyalarni bajarishdan manfaatdor hisoblandilar. Rivojlangan davlatlarda faktoring operatsiyalari mijozning moliyaviy ahvoli, aksionerlik kapitali mikdori, mahsulot turi, ish hajmi va boshqalarga qarab yillik aylanmaning sezilarli qismini tashqil etadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish daromida mamlakatimiz tijorat banklaring vositachilik operatsiyalarni rivojlantirish, mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik.

- Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalarini tartibga soluvchi me'yoriy – huquqiy bazani takomillashtirish lozim;

- Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirish maqsadida banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi vositachilik operatsiyalari xususan, anderrayterlik, brokerlik va depozitar faoliyat natijasida olgan daromadlari bo'yicha foyda solig'idan imtiyozlar joriy qilish kerak;

- Tijorat banklarining ishonchli, moliyaviy barqaror bo'lgan mijozlari guruhiga xalqaro faktoring xizmati ko'rsatish yo'li bilan faktoring operatsiyalari miqdori va daromadlilikini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Meyoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992 yil 8 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 1999 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» gi qonuni, 1995 yil 21 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonun, 1996 yil 25 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi Qonuni, 2008 y
7. O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. 2008 yil 28 noyabr
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi PQ – 2344 sonli Qarori. 2015 yil 6 may
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvatlash, ularning barqaror ishlashini taminlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida”gi Farmoni. 2008 yil 28 noyabr
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi. PQ-1438-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. 2007 yil 7 noyabr, PQ-726.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi

investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 12.07.2007 y. "Xalq so'zi" gazetasi. 13.07.2007 y.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 1317-sonli Qarori. 2010 yil 6 aprel

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005 yil 15 apreldagi PQ-56 sonli qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli Qarori

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2000 yil 24 martdagi 104-sonli Qarori.

19. Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom № 953, 03.08.2000 yil

20. "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom (Markaziy bank Boshqaruvining 2006 yil 21 oktyabrdagi 25/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan)

2. O'zbekistonn Respublikasi Prezidenti asarlai va ma'ruzalari

21. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2016.

22. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. \ Xalq so'zi. 2016 yil. 8 dekabr.

23. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. \ Xalq so'zi. 2016 yil.

3. Darslik va o'quv adabiyotlar ro'yxati :

1. Qoraliev T.M, Qodirov E.T, "Xorijiy mamlakatlarda bank ishi". O'quv qo'llanma –T.:TMI, 2016. – 210 b.
2. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma. -T.: TMI, 2003.-305 b.


3. Балабанова И.Т. «Основ финансового менеджмента». Учебной пособий 3-й издание, М.: Финанси и статистика 2000
4. Omonov A., Karaliev T., – «Banklarda buxgalteriya hisobi». Darslik, Toshkent «Iqtisod-moliya» 2014y. Ilovalar, 222 b.
5. Navruzova K.– Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. O‘kuv qo‘llanma.–Toshkent «Iqtisod-moliya», 2010. 188 b.,
6. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash-T.: Moliya, 2002. -304
7. Berdiyarov B.T. «Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi». i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferata. -T.: 2002. - 21 b.
8. Umarov Z.A. “Tijorat banklarining moliyaviy natijalari mohiyati” Iqtisodiyot va ta’lim jurnali № 1 2006 yil

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

9. “Bank axborotnomasi” gazetasi 2017-yil yangi nashr sonlari
10. “Ahbor-reyting ” milliy reyting agentligi hisobot ma’lumotlari
11. “Bozor, pul-kredit” gazetasi
12. Tijorat banklari moliyaviy xisobotlari. Bank axborotnomasi gazetasi №18-19 (989-990) 2015 y., 30 aprel

5. Internet saytlari

13. www.agrobank.uz sayti (ATB “Agrobank” rasmiy sayti)
14. www.cbu.uz sayti (O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki)
15. www.ipotekabank.uz sayti (ATB “Ipotekabank” rasmiy sayti)
16. www.asakabank.uz sayti (XATB “Asakabank” rasmiy sayti)
17. www.kdb.uz sayti (AJ “KDB” bank rasmiy sayti)
18. WWW.My.Gov.UZ sayti (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)
19. www.isdb.org, sayti (Islom Taraqqiyot banki sayti)

Faktoring usulida moliyalash boskichlari ²²

²² Bank axborotnomasi 2005yil 34-son. 4-bet